

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Tilshunoslik kafedrası

Qo'l yozma huquqida

**Axmadjonova Gulbahor Yigitali qizi**

## **Me'morchilik atamalarining mavzuviy guruhları**

**5220100 – filologiya**  
(o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

### **BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Ish rahbari: filologiya fanlari  
nomzodi, katta o'qituvchi H.R.Zakirova

Andijon – 2015

Filologiya fakulteti IV kurs talabasi **Axmadjonova Gulbahor Yigitali qizining**

**“Me’morchilik atamalarining mavzuviy guruhlari”**

mavzuidagi bitiruv malaka ishiga ilmiy rahbar

**T A Q R I Z I**

O'zbek tili lug'at sostavini tashkil etgan leksik qatlamlarning bir qismi turlicha kasb-hunarga oid so'z – terminlardir. Bunday so'z – terminlar o'zbek xalqi shug'ullanib kelgan va kelayotgan kasb tarmoqlari bilan bevosita bog'langan bo'lib, o'sha kasb ahllarining ijtimoiy mehnatlari jarayonida yaratilgan puxta terminlardir. Hozirgi paytda esa ularni to'plash, tartibga solish o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili leksik boyligining bir qismi me'morchilik va shu kasb bilan bog'langan asboblarning hamda ish jarayonlari nomlarini ifodalovchi so'z – terminlardir. Bu so'zlarning umumo'zbek tili doirasida bir xil qo'llaniladiganlari ham bor, farqli ishlatiladiganlari ham uchraydi. Turli viloyat va tumanlarning me'morlik inshootlarida turli naqshlar, o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu nomlarning ma'lum qismi adabiy me'yorga kirgan va bir qismi kirmagan bo'lib, ularni to'plash, lingvistik tomondan o'rganish va tartibga solish muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan M.Nishonovanning “Me'morchilik atamalarining mavzuviy guruhlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu bitiruv malaka ishida butun-bo'lak munosabatidan kelib chiqib, o'zbek tili me'morchilik terminlarining tematik guruhlari, leksik-semantik guruhlari o'rganilgan. Unda termin va kasb-hunar leksikasi, terminning qo'llanishi va manbai, me'moriy inshootlar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari, me'morchilik terminlarining tematik guruhlarini hamda ular orasidagi o'ziga xos xususiyatlari, me'morchilik terminlarining leksik-semantik guruhlarini kabi masalalar yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida so'nggi davrlarda qo'lga kiritilgan yutuqlar tadqiqot uchun nazariy manba sifatida xizmat qilib, ishda chog'ishtirish, tavsifiy metodlardan foydalanilgan. Bitiruv malaka ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mavzuning to'liq yoritilganligi, ishning yakunlanganligi hamda talab darajasida yoritilganligini hisobga olib, ushbu BMI himoyaga tavsiya qilinadi.

Ilmiy rahbar:

H.R.Zakirova, f.f.n., Tilshunoslik kafedrası  
katta o'qituvchisi

## M U N D A R I J A

|                                                                           |    |
|---------------------------------------------------------------------------|----|
| I bo'lim. Ishning umumiy tasnifi.....                                     | 3  |
| II bo'lim. Kirish. Me'morchilik terminlarining shakllanish tarixidan..... | 6  |
| I bob .Termin ba so'z.....                                                | 9  |
| 1.1.Termin ba kasb-hunar leksikasi.....                                   | 17 |
| 1.2.Terminning qo'llanishi.....                                           | 20 |
| 1.3.Terminlarning manbai.....                                             | 22 |
| II bob. Me'moriy inshootlar nomlarining onomasiologik tahlili             |    |
| 2.1. Me'moriy inshootlar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari.       | 29 |
| 2.2. Me'moriy terminlarning tematik guruhlari.....                        | 34 |
| 2.3. Me'morchilik terminlarining leksik-semantik guruhlari.....           | 38 |
| III bo'lim. Umumiy xulosalar.....                                         | 49 |
| Adabiyotlar .....                                                         | 52 |

## **Ishning umumiy tavsifi**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbek tili lug'at sostavini tashkil etgan leksik qatlamlarning bir qismi turlicha kasb-hunarga oid so'z – terminlardir. Bunday so'z – terminlar o'zbek xalqi shug'ullanib kelgan va kelayotgan kasb tarmoqlari bilan bevosita bog'langan bo'lib, o'sha kasb ahllarining ijtimoiy mehnatlari jarayonida yaratilgan puxta terminlardir. Hozirgi paytda esa ularni to'plash, tartibga solish o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilning lug'at boyligi shunday xazinaki, unda xalq tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar saqlanadi; xalqning hayoti va madaniyati; moddiy va ma'naviy boyliklari, shuningdek, tabiatni yanada chuqurroq bilish va egallashdagi roli o'z ifodasini topadi.

O'zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikasining o'rganish, tartibga solish masalasida professor S.Ibrohimovning xizmatlari katta. Uning 50– yillarning oxirlarida chop etgan ko'p asarlari<sup>1</sup> o'zbek tili kasb hunar leksikasini lingvistik jihatdan o'rganishda yaxshi namuna bo'la oladi. Keyingi yillarga kelib, O'zbekiston kasb-hunar leksikasi ilmiy tadqiq qilingan qir qator nomzodlik ishlari maydonga keldi<sup>2</sup>.

O'zbek tili leksik boyligining bir qismi me'morchilik va shu kasb bilan bog'langan asboblarning hamda ish jarayonlari nomlarini ifodalovchi so'z – terminlardir. Bu so'zlarning umumo'zbek tili doirasida bir xil qo'llaniladiganlari ham bor, farqli ishlatiladiganlari ham uchraydi. Turli viloyat va tumanlarning me'morlik inshootlarida turli naqshlar, o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu nomlarning ma'lum qismi adabiy me'yorga kirgan va bir qismi kirmagan bo'lib, ularni to'plash, lingvistik tomondan o'rganish va tartibga solish muhim ahamiyatga egadir.

Termin yaratish sohasiga doir fikr va mulohazalar bir necha atoqli

---

<sup>1</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Т.:Ўзб.ССР ФА, 1959. Ибрахимов С. Профессиональная лексика узбекского языка. Автореферат, докт.дисс... Т.,1961.

<sup>2</sup> Дадахонова Д. Вышевальная лексика узбекского языка. Автореферат канд., дисс... Т.,1963, Асамутдинова М. Название одежды и ее частей в узбекском языке. Автореферат канд. дисс... Т., 1969. Нугманов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке. Автореферат канд. дисс... Т.,1971.

olimlarimizning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

Demak, o'zbek tili lug'at sostavini tashkil etgan leksik qatlamlarning bir qismi turlicha kasb-hunarga oid terminlardir. Bunday terminlar o'zbek xalki shug'ullanib kelgan va kelayotgan kasb tarmoqlari bilan bevosita bog'langan bo'lib, o'sha kasb ahllarining ijtimoiy mehnatlari jarayonida yaratilgan puxta terminlardir. Hozirgi paytda ularni to'plash, tartibga solish o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko'ra, biz bitiruv malakaviy ishi mavzusi maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqotning o'rganish ob'ekti o'zbek tilida me'morchilik bilan bog'liq leksemalardir.**

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu bitiruv malaka ishining maqsadi dialektikadagi butun-bo'lak munosabatidan kelib chiqib, o'zbek tili me'morchilik terminlarining tematik guruhlarini, leksik-semantik guruhlarini o'rganishdir.

Ko'zda tutilgan asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish bilan erishiladi:

- Termin va kasb-hunar leksikasi, terminning qo'llanishi va manbai haqida ma'lumot berish;
- Me'moriy inshootlar nomlarining leksik-semantik xususiyatlarini farqlash;
- Me'morchilik terminlarining tematik guruhlarini hamda ular orasidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Me'morchilik terminlarining leksik-semantik guruhlarini ajratish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Bitiruv malaka ishining metodologik asosi olamni o'zaro aloqadorlikda va taraqqiyotda o'rganishga asoslangan dialektik falsafadir. O'zbek tilshunosligida so'nggi davrlarda qo'lga kiritilgan yutuqlar tadqiqot uchun nazariy manba sifatida xizmat qildi. Ishda chog'ishtirish, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

---

<sup>1</sup> Решетов В.В. К вопросу о термине “Курама” и “Кураминцах”. Бюллетень АН Узб.ССР, 1945. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. Сб. “Вопросы терминологии». М., 1961. Фуломов А. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари. Т., 1949. Расулов И. Ўзбек илмий-техник терминологияси тараққиётининг баъзи масалалари. Т., 1952. Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. Т.: Ўқитувчи, 1968. Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси баъзи масалалари. Т.: Фан, 1982. Нуъманов Т. Лизчилик терминларининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари ҳақида. Наманган, 1993.

**Olingan natijalar.** “Me’morchilik terminlarining tematik guruhlari” mavzusidagi bitiruv malaka ishini yoritish uchun 100 ga yaqin misollar to’plangan. Bu misollarni tahlil qilish orqali me’morchilik leksemalarining mavzuiy guruhlari to’rt turga (me’morchilikning naqqoshlik san’ati terminlari, o’ymakorlik san’ati terminlari, ganchkorlik san’ati terminlari, toshtaroshlik san’ati terminlari) ajratilgan. Bu guruhlarga kirgan leksemalarning birlashtiruvchi va ularning farqlanuvchi belgilari tahlil qilingan. Ularning leksik-semantik guruhlari yigirmadan ortiq turga ajratish mumkinligi ko’rsatilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va umumii hajmi.** Bitiruv malaka ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Umumiy xajmi 53 sahifadan iborat.

## ME'MORCHILIK TERMINLARINING SHAKLLANISH TARIXIDAN

Leksika tilning shunday sohasiki, unda ijtimoiy hayotda yoz beradigan har qanday o'zgarishlar bevosita o'z aksini topadi. Leksik sostavni shakllantiruvchi birliklarning borliqdagi narsa, predmet, voqea, hodisa, harakat-holat kabilarni atash funktsiyasini bajarish uchun xizmat qilishi leksikaning tildan tashqari bo'lgan - ekstralingvistik faktorlar bilan zich aloqada bo'lishini taqozo etadi. Jamiyatda nimadir paydo bo'lishi, qandaydir yangi predmet yoki hodisaning ma'lum bo'lishi tilda ularning ifodasi sifatida yangi so'z, ibora tug'ilishiga yoxud mavjud leksik birliklarning yangi ma'no kasb etishi sabab bo'ladi.

Tilning leksik sostavi shu til egasi bo'lgan xalqning tarixi, hayot tarzi, milliy madaniy saviyasini aks ettiradi. Har qanday tilning tarixi shu til mansub bo'lgan xalqning sotsial tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Asl so'zlar tilning shakllanish davrida qanday narsalar muhim rol o'ynaganligini, tilning lug'at tarkibi xalq nima to'g'risida fikr yuritishini ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'li, xalq ijodi, mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan fan-texnika, madaniyat, san'at, shuningdek, hunarmandchilik tarmoqlarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tilimiz leksikasida o'z izini qoldiradi. Arxeologik qazishlardan ma'lum bo'lishicha, fan-texnika, madaniyat, hunarmandchilik sohalaridan erishgan ilk yutuqlarimiz bronza davri bilan bog'lanadi.<sup>2</sup>

Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar bevosita me'morlik leksikasiga oid terminlar bo'lmasa ham, naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligikabi me'morlik san'ati tarmoqlarining tarixi haqida. San'at turlarining qo'llanishi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, me'morlikda qo'llaniladigan pishiq g'isht, rangli sopol, shisha, ganch kabi xom ashyolarning qoldiqlari topilishi topildiqlarning qaysi asrga oidligini aniqlashga yordam beradi.

---

<sup>1</sup> Философский словарь. М.:1961.Стр.70

<sup>2</sup> Ўзбекистон тарихи. 1-том. 47-бет

Me'morchilik terminlarining shakllanish tarixini masalalsini o'rganishda yozma yodgorliklar, qadimiy lug'atlar, turli davrlarda yaratilgan tarixiy va badiiy asarlarda uchraydigan lingvistik faktlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu jihatdan V-VIII asrlarga oid Urxun-Enasoy yodnomalari, XI asrda yaratilgan M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" (saodatga yo'llovchi ilm) asarlari, XIII-XIV asrlarga oid "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" (Turkiy tillar haqida noyob tuhfa – muallifi nomalum), XIV asr turkiy tillarni o'rganishga bag'ishlangan yodgorlik Abu Hayyoning "Kitob al idrok li-lison al-atrok" (Turklar tilini idrok etish kitobi) asarlari, Jamoliddin Turkiyning XIV-XV asrlarga oid "Kitob bulg'at al-mushtoq fi lug'at-it-turk va-l-qifchoq" (Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qoniqtiruvchi kitob) asarlari diqqatga sazovordir.

Professor A.K.Borovkov tomonidan maxsus o'rganilib nashrga tayyorlangan "XII-XIII asrlar O'rta Osiyo tafsiri leksikasi" kitobining lug'at qismida me'morlik leksikasiga oid ayrim terminlarni uchratamiz. Jumladan, Mahmul Koshg'ariyning "Devonida" "yopinchiq" tarzida izohlangan *ko'shik* so'zi Qarshi shahridan topilgan O'rta Osiy tafciri leksikasida *ko'shk* shaklida qo'llanib ma'nosi "besedka" deb izohlangan.<sup>1</sup>

XIII-XIV asrda yaratilgan "Attuhfa" asarida ham *koshk* so'zi berilgan. XIV asr turkiy tillarini o'rganishga bag'ishlangan Abu Hayyoning "Kitob al idrok" asarida *ko'shk* so'zi saroy deb ta'riflangan. "Attuhfa" va "Kitob al idrok" asarlarining lug'at qismida *ko'shk* so'zi uchun berilgan izohlarning ma'nolari bir-biriga bir oz bo'lsa-da, yaqin turadi. Arxitektor P.SH.Zohidovning fikricha, *ko'shk* uzoq tarixga ega bo'lgan, ammo ba'zi sabablarga ko'ra qisman unutilgan imorat turidir.

O'rta Osiyodagi ko'chmanchilarning ikki yoki to'rt g'ildirakli aravalariga o'rnatilgan uylari haqida sayyoh Marko Polo ham o'z esdaliklarida yozgan. Shunday qilib, ko'chmanchilarning *ko'chi* – *ko'chik* > *ko'shik* > *ko'shk* tarzida

---

<sup>1</sup> Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Тошкент: 1978. 52-бет.

fonetik o'zgarishlarga uchragan. Keyinchalik bu so'z O'rta Sharq orqali Evropa tillariga, frantsuz tiliga, so'ngra rus tiliga "kiosk" shaklida kirib kelgan.<sup>1</sup>

Qadimda ko'chish ma'nosi bilan bog'langan *ko'shk* davrlar o'tishi bilan xoqonlarning ko'chish vaqtida o'tiradigan aravasi – taxti vazifasidan boshqa kengroq funktsiya o'taydigan, xoqonlar bog'ida quriladigan imorat turini bildirgan. Bu mulohazani "Bobirnoma" da qayd etilgan quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi: "Temurbekning va Ulug'bek Mirzoning imorati va bog'oti Samarqand mahalloti ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' *ko'shk* solibtur, to'rt oshiyonliq, Ko'ksaroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur".<sup>2</sup>

"Tafsir"ning lug'at qismida *ko'shkdan* tashqari qadimiy me'morlik leksikasiga oid *shahriston*, *hujra*, *xona*, *machit*, *dam* (devor ma'nosida) kabi turli qurilish va inshoot nomlari bildiruvchi terminlar, shuningdek *kax* (balkon), *ko'prik*, *kalit*, *yap*(qurmoq), *kariz*(nov, kanal) kabi umuman arxitekturaga oid terminlar ham berilgan.

Qadimiy me'morchilik terminlaridan joy ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan shahriston so'zi "Tafsir"da *shahriston* (mustahkamlangan shahar) tarzida izohlangan. Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atda: Shahriston – shahar qo'rg'oni, shahar ichi, katta shahar.<sup>3</sup>

Me'morchilik terminlarining qo'llanish tarixini ko'zdan kechirish quyidagilarni qayd etish imkonini beradi:

1. Me'morchilik terminlarining shakllanishi ancha qadim tarixga ega.
2. XII-XIII asrlardan boshlab me'morchilik leksikasida fors-tojikcha, arabcha terminlar keng qo'llana boshlagan.
3. XV asrlar Vatanimizda me'morlik san'atining gurkirab yashnagan davri bo'ldi. Ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat taraqqiyoti tilimiz leksikasi, jumladan me'morlik san'ati leksikasi rivojiga sezilarli darajada ta'sir etdi.

---

<sup>1</sup> Зоҳидов П.Ш. Ўша асар. 51-бет.

<sup>2</sup> Бобирнома. Т.:1960. 105 -бет.

<sup>3</sup> Навоий асарлари луғати.Т.:1972, 694-бет.

## I bob. TERMIN VA SO'Z

Termin gapdan tashqarida olinganda ham ma'lum bir aniq ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi so'z birikmasidir. Uning asl lug'aviy ma'nosi ham shuni anglatadi: lotin tilida terminus so'zi chegara belgisi, chek, chegara degan ma'nolarni ifodalaydi.

Demak, termin hamma so'zlar kabi so'z bo'lib, u ham ma'lum bir mustaqil tushuncha anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo'lgan bir vosita hisoblanadi.

Lekin termin bilan odatdagi so'zni bir narsa deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Ma'lumki, o'tmishda Evropada ilm-fanning dastlabki yaratuvchilari bo'lgan qadimgi greklarda va rimliklarda termin fanniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar sifatida qo'llangan bo'lsa ham, bizning zamonamizga kelib bu tushuncha o'zgarishlarga uchradi: ko'pgina olimlar termin so'zining ma'nosini avvalgicha, ya'ni ma'lum fan va fan bilan bog'langan texnika, san'at va madaniyatga oid hodisalar bilan belgilasalar, ba'zi bir olimlar har qanday ot(termin)ni termin deb hisoblashga tayyordirlar. Bu jihatdan ular termin so'zini morfologiyadagi ot so'zining ekvivalenti – sinonimiga aylantirib qo'yadilar.

Termini otning sinonimi deb hisoblovchilar, asli-da, ingliz faylasuflarining, so'ngra esa XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o'n martadan ortiq nashr qilingan «Mantiq darsligi» avtor G. I. Chelpanovning fikrlarini takrorlaydilar.

Ingliz faylasuflarining fikricha, «mantiqda tushunchalar haqida emas, terminlar, nomlar yoki terminlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir»<sup>1</sup>. G. I. Chelpanovning fikricha, rus tilidagi *красивый, делитый, конечный, некрасивый, неделимый, бесконечный* so'zlari bo'lishli (положительный) va bo'lishsiz (отрицательный) terminlardir<sup>2</sup>.

Demak, mantiqshunos uchun termin—mantiqiy muhokama elementi bo'lib, uning faqat ot bilan ifodalanishi shart emas. Ammo tilshunos termini bu xilda

---

<sup>1</sup> Челпанов Г.И. Учебник логики.-М.:1946.-С.:8

<sup>2</sup> Ўша асар. 11-бет.

tushunmasligi kerak. Tilshunoslikda hamma terminlarni, shu hisobdan, odatdagi sifatlarni ham terminga kiritish terminning doirasini asossiz ravishda kengaytirib yuborish bo'lar edi. Hozirgi mantiqshunoslar terminni bu xilda keng ma'noda, ya'ni so'z ma'nosida qo'llamaydilar. Termin — so'zlarning bir xili, ammo hamma otlar (ayniqsa, sifatlar) ham termin deb hisoblanmasligi lozim.

Termin odatdagi so'zlardan farq qiladi. Termin bilan odatdagi muomala chog'ida qo'llanadigan so'zlar orasidagi farqlar aniqlanar ekan, bu bilan terminning o'ziga xos xususiyatlari ham ochiladi. Shuning uchun quyida bu ayirmalarning eng muhimlariga, terminlarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtab o'tishga to'g'ri keladi.

1. Ma'lumki, so'zning ma'nosi ko'p hollarda murakkab bo'ladi, uning asosini tushuncha tashkil qilib, tushuncha ustiga kishiga ta'sir qiladigan qo'shimcha emotsional-ta'sirchan ottenka «buyoq» qo'shiladi. Bundan tashqari, so'z nutqning turli xillarida (oddiy muomalada, publitsistik tekstlarda, she'riyatda, ilmiy asarlarda, jamoatchilik oldida so'zlanadigan nutqlarda, idora qog'ozlarida va boshqa shu kabilarda) qo'llanishga xoslangan ham bo'ladi, boshqacha aytganda, stilistik belgiga (yoki «pasport»ga) ham ega bo'ladi. Mana shu uch tarkibiy qism (komponentlar) ma'nosi bir-biriga yaqin yoki bir-biriga tengdek ko'ringan so'zlar orasidagi tafovutga sabab bo'ladi. Masalan, *farzand—bola, xotin—rafiqa—yostiqdosh, er—o'rtoq—yostiqdosh—dadasi* (oddiy muomalada), *yuz—bet—bashara—chehra—jamol, burun—tumshuq* va boshqalar.

Shu jihatdan qaraganda, termin emotsional-ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lmay, tushuncha va stilistik belgi ifodalaydi. Uning stilistik belgisi ma'lum ishlab chiqarish, fan sohasiga oid bo'lgan aloqa protsessi yoki ilmiy asarlar bilan bog'langanligidan va bu belgi shunday maxsus sharoitda sezilib turmaganidan, odatda, terminning aniq bir tushuncha ifodalashiga e'tibor qilinadi.

Terminidagi tushuncha bilan bog'langanlikning bo'rtib turishi uni mantiq qoidasi asosida ta'riflash imkoniyatini beradi. Masalan: *kurtak*—o'simlikning tana, barg, gul va boshqa qismlarini hosil qiluvchi organ, boshlang'ich novda (botanika), *diafragma*—qursoq bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratib turadigan to'siq (anatomiya),

*realizm* — adabiyot va san’atda voqelikni badiiy obrazlarda butun to’laligi bilan to’g’ri tasvirlab berishni talab etuvchi badiiy metod va boshqalar.

Terminlarni mantiqiy jihatdan ta’riflash mumkinligi esa ularni boshqa so’zlardan ajratish imkoniyatini beradi.

Mantiqiy - ta’riflash termin sifatida olingan so’zdan anglashiladigan tushunchaning bir necha muhim belgisini ifodalash demakdir. Bunda termin xususiy tushunchani ifodalasa, ta’riflash uchun foydalanilgan so’z umumiy tushunchani, keng tushunchani ifodalaydi. Masalan, yuqorida *kurtak* terminidan anglashilgan tushuncha organ va novda singari umumiy va keng tushunchalar yordamida ta’riflangan.

2. Termin hamma vaqt — gapda ham, gapdan tashqarida ham bir ma’noli bo’ladi. Uning bir ma’noli bo’lishi ma’lum fan yoki ma’lum sohadagina qo’llanish hususiyati orqali yuzaga keladi. Masalan, *til* oddiy so’z sifatida ko’p ma’nolidir: turli gapda turli ma’noda qo’llanishi mumkin (kishi va hayvonlardagi ma’lum organ nomi, aloqa quroli nomi, «so’z» degan ma’noda: *quloq*, *sol tilima*, «sir», «usul» ma’nolarida: *Rizamat biladi nihol tilini* va boshqalar.) Ammo termin sifatida odam yoki hayvon anatomiyasi sohasidagi ma’lum bir organnigina ifodalaydi, ijtimoiy fanlar sohasida esa faqat kishilarning jamiyatda o’zaro aloqa qilish qurolini anglatadi. Bunday maxsus sohalarda qo’llangan termin turli gapda kelganda ham faqat bir xil ma’noni anglataveradi.

3. Termin so’zning ko’pincha qo’llaniladigan asosiy (bosh) ma’nosigagina tayanmaydi, balki ko’chma (yoki yasama) ma’nolariga ham asoslanadi.

Masalan, *o’zak* termini botanika fani sohasida o’z ma’nosida — o’simlik tanasining o’rta qismi («серцевина») ma’nosida qo’llansa, zoologiyada patning o’rta qismi, texnikada «elektromagnitning o’zagi» («стержень, сердечник»: *сердечник электромагнита*) ma’nosida ko’chma holda qo’llanadi. O’zak termini grammatikada ham ko’chma ma’noda qo’llanadi. Chunki so’zning o’zagi so’zning o’rtasida kelishi shart emas, aksincha o’zbek tilida ko’proq so’zning boshida (ya’ni «chetida») keladi.

Termin murakkab tuzilgan bo’lsa, uning bir yoki bir necha elementi ko’chma ma’noda

bo'lishi mumkin: masalan, anatomiya sohasidagi *miya po'sti maydonlari* termini sostavidagi *po'st* va *maydon* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangandir.

Terminning ko'chma ma'nosi asosiy (bosh) ma'no bilan ikki xil munosabatda bo'ladi:

1. Asosiy ma'no bilan termin anglatgan ko'chma ma'no o'zaro bog'langan bo'ladi va bu bog'lanish anglashilib turadi. Ma'lumki, so'zlardagi ma'no ko'chishi metafora, metonimiya, funktsiyadoshlik, sinekdoxa usullarida yuzaga keladi.

Ma'no ko'chishidan hosil bo'lgan terminlarda metafora ko'proq uchraydi. Masalan, geografiya sohasidagi *qo'ltiq* («залив»), *burun* («мыс») terminlari joylarning ko'rinishini (shaklini) odamning qo'ltig'iga, burniga o'xshatishga asoslangan; botanika sohasidagi *chang* o'simlik guli ichidagi mayda otalik urug'larini mayda tuproqda, tuzonga o'xshatishga asoslangan.

Ma'nosi metonimiya usulida ko'chgan terminlar u *qadar* ko'p bo'lmasa ham, har holda, uchrab turadi. Masalan, *qorako'l* qo'yning bir zotining nomi, *modera*, *madeyra*, *tokay* (vino turlarining nomi) aslida joy nomlaridan olingan.

Elektrda qarshilik o'lchovi birligi *om*, tok kuchi o'lchovi birligi *amper*, tokning kuchlanish o'lchovi birligi *volt* shu hodisalarni kashf qilgan olimlar nomi (Ом, Ампер, Вольт) ni metonimiya usulida ko'chma ma'noda qo'llashdan tug'ilgan.

Sinekdoxa usulida, ya'ni butun bilan qism orasidagi munosabat asosida ma'no ko'chishi natijasida ma'lum hayvonning terisi ma'nosini anglatadigan *qora-ko'l*, *tulki*, *qunduz* kabi terminlar vujudga kelgan.

2. Asosiy ma'no bilan ko'chma ma'noda qo'llangan termin ma'nosi orasidagi aloqa uzoqlashib, pirovardida yo'qolib ketadi. Natijada, odatdagi so'zga omonim bo'lgan termin hosil bo'ladi. Masalan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan *o'zak* aslida o'rtada keladigan narsani anglatadigan so'z bo'lsa ham, grammatik termin sifatida asosiy qismni (so'zning asosiy leksik ma'nosini tashuvchi qismni) anglatadiki, bu ma'noda u o'rtada bo'lish belgisiga ega emas. *Ega*—«xo'jayin», «xudo» degan ma'nolarni anglatadigan so'z, ammo grammatik termin sifatida qo'llanganda bu ma'nolar esga olinmaydi.

3. Termining ma'nosi sun'iy ravishda semantik taraqqiyotdan, o'zgarishlardan to'xtatilgan bo'ladi. Termin ba'zan so'zning ko'chma ma'noda qo'llangandagi ma'nosini anglatga ham, bu ko'chma ma'no o'sha terminning birdan-bir ma'nosi bo'lib qoladi. Vaholanki, odatdagi so'zlarda ko'chma ma'nolardan biri bilan bunday chegaralanib qolib bo'lmaydi. Davr o'tishi bilan so'zning bosh ma'nosi yoki ayrim ko'chma ma'nolari unutilishi va boshqa ko'chma ma'no saqlanib qolib, asosiy ma'noga aylanishi mumkin bo'lsa ham, bu so'nggi ma'no (yoki ma'nolar) asosida keyinchalik yangi ko'chma ma'nolar hosil bo'lish protsessiga chek qo'yilmaydi.

Termin ham odatdagi so'zlar kabi turli ma'nolarga ega bo'lib qolsa (semantik jihatdan taraqqiy qilsa), o'sha fan yoki fanning bo'limi sohasida fikrlarning har xil zkanligi anglashiladi. Masalan, *grammatik kategoriya* termini ba'zan bir necha grammatik ma'no yig'indisi deb tushuntirilsa, ba'zan grammatik ma'nosi bir-biri bilan bog'langan grammatik formalarning jami deb tushuntiriladi. Shuningdek, *grammatik forma* termini ba'zan so'zdagi affiks ma'nosida tushunilsa, ba'zan so'zning gapda qo'llanish chog'idagi qiyofasi deb tushuniladi. Bu hol uzoq vaqtlar davom qilishi mumkin. Masalan, *grammatik forma* terminining ikki xil ma'noda qo'llanishi XIX asrdayoq mavjud edi.

4. So'z terminga aylanganidan so'ng mavjud sinonimiya va antonimiya qatoridan chiqib ketadi. Masalan, *ega* so'zining asosiy sinonimi *xo'ja* («xudo») ma'nosida qo'llanganida esa *xudo*, *ollo*, *tangri* so'zlari ham unga sinonim bo'ladi. Ammo u grammatik termin sifatida qo'llanar ekan, yuqoridagi so'zlar unga sinonim bo'lmay qoladi.

Shuningdek, *so'z* va *gap*, *ildiz* va *tomir* so'zlari, odatda, bir-birlariga sinonimdir. Ammo termin sifatida ular bir-birlariga sinonim bo'lmaydi: *so'z* — tilshunoslikda leksikologiya va morfologiyaning ob'ekti bo'lgan birlikni ifodalasa, *gap* termini sintaktik birlikni ifodalaydi. Ularni farqlamaslik juda katta anglashilmovchilikka sabab bo'lgan bo'lur edi. Botanika fani sohasidagi *ildiz* bilan *tomir* terminlari mana shunday boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi: *ildiz* — o'simlik tanasining pastki qismi bo'lsa, *tomir* — o'simlik bargidagi taram-taram

«ip»lar.

Fizika fani sohasidagi *issiqlik sig'imi* termini sostavidagi *issiqlik* so'zi, odatda, oddiy muomalada *iliqlik* so'ziga sinonim, *sovuqlik* so'ziga esa antonimdir. Ammo termin sostavida uni bu so'zlarga ma'nodosh deb ham, qarama-qarshi deb ham bo'lmaydi. Ularni, hatto, nisbatlash ham mumkin emas. Xuddi shu kabi, *chang* terminini *to'zon* so'ziga nisbatlash va ularnn sinonim deb tushunish botaniklarning xayoliga ham kelmaydi.

Tabiatdagi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan narsa va hodisalar ilmiy klassifikatsiyada o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Masalan, tabiatda qattiq narsaning aksi yumshoq narsa ham mavjud. Ammo tabiiy fanlar sohasida jismlarni bunday klassifikatsiya qilmaydilar. Chunonchi, fizik jismlarni uchga — qattiq jism, suyuq jism va gazlarga bo'ladilar. Demak, fizika fani sohasida *qattiq jism* terminining antonimi *yumshoq jism* yo'q. Ammo ba'zan so'zlarning antonimligi terminga aylanganda yuzaga keladi. Masalan, ximiya fani sohasida qo'llanadigan *og'ir suv* terminining antonimi *engil suv* ham mavjud. Vaholanki, odatdagi *og'ir* so'zi bilan *suv* so'zi erkin birikma hosil qilmaydi, binobarin, oddiy muomalada uning antonimi sifatida *engil suv* birikmasi ham tuzilmaydi.

5. Termin emotsional-ta'sirchan (yoki emotsional-ekspressiv) «buyoq»qa ega emas. Bunday rang terminni aniq bir ma'noda qo'llashga xalaqit beradi. Chunki emotsional-ta'sirchan ottenka kishining nutq momentida predmet yoki hodisaga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalaydi, termin esa predmet va hodisalarga oid bo'lgan ob'ektiv tushunchalarni ifodalaydi. Terminning ma'nosida sub'ektiv moment bo'lmasligi kerak.

Ba'zan terminlarning morfologik sostavila kichraytish, erkalash ma'nosini ifodalaydigan affikslar bo'ladi. Ammo bunday affikslar termin sostavida hech qanday erkalash ottenkasini ifodalamaydi. Masalan, yurakning tuzilishiga oid bo'lgan *qorincha*, o'simlik tuzilishiga oid bo'lgan *og'izcha*, avtomobil motoriga oid bo'lgan *mushtcha* terminlaridagi -cha affiksi odatdagi emotsional-ekspressiv buyoqqa ega emas. Agar bu terminlar odatdagi so'zlar kabi qo'llanib, bolalarning qorinchasi yoki

jajji og'izchani, mushtchasini anglatganlarida edi, kichiklik ma'nosigina emas, o'sha kichkina predmetlarga nisbatan bo'lgan erkalash munosabati ma'nosi ham anglashilgan bo'lar edi.

Ayrim vaqtlarda termin sifatida qo'llangan so'zning emotsional-ekspressivlik, obrazlilik xususiyatini yo'qotib, «unutib» bo'lmaydi. CHunki emotsional-ta'sirchanlik, obrazlilik so'zning asosiy ma'nosiga qo'shilgan qo'shimcha ma'no bo'lmay, asosiy leksik ma'noning o'zi shundan iborat bo'ladi. Masalan, *bilqillama er* («talaya zemlya»), *bilchillama qor* («талый снег») terminlari noqulay yasalgan geografik terminlar sifatida ko'zga tashlanadi. Aslida bu erda gap erigan er, erigan qor haqida boradi. YUqoridagi terminlar sostavidagi *bilqillama*, *bilchillama* so'zlari esa ilmiy terminga nisbatan badiiy tasvirga ko'proq mos keladi.

Xuddi shu kabi botanika sohasida *pastushya sumka* o'simligini *acham biti*, *bezlistnyy ejovnik* o'simligini *itsiygak*, *odnoletnyaya polyub* o'simligini *sassiq ko'kat* deb nomlash juda ham noqulay. SHuning uchun xalq tilida bo'lgan ularning sinonimlari *jag'-jag'*, *boldiriq*, *burgan* so'zlarini ilmiy termin sifatida tanlab olish, yuqorida aytilganidek, emotsional-ekspressiv ta'sirdan qutulish imkonini beradi.

6. Odatdagi so'zlar tuzilish jihatidan sodda yoki qo'shma bo'ladi. Terminlar esa sodda va qo'shmalikdan tashqari, murakkab (ya'ni birdan ortiq so'zlarning grammatik tobelik munosabatiga kirishiga asoslangan turg'un birikma holatida) *ham* bo'ladi.

Murakkab so'zlardan terminlar yasashda shunday talablarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

a) termin mumkin qadar ixcham, kam sonli so'zlardan iborat bo'lishi kerak. Masalan, M. V. Lomonosov yaratgan ilmiy terminlar ikki va uch so'zdan oshmas edi, Terminlarning ixcham bo'lishi ularni qo'llashda qulaylik tug'dirishidan tashqari, ulardan yangi terminlar yasash imkoniyatini beradi. CHunonchi, mavjud termindan so'z yasovchi affiks yordamida yangi termin yasash (*qilichboz* («fextoval'shik») — *qilichbozlik* («fextovanie»), (*futbol* — *futbolchi*) yoki murakkab termin yasash (*son* («chislo») — *teskari son* («obratnoe chislo»), *yoy* («duga») — *yoy minuti* («dugovaya

minuta»)— yoy *gradusa* («dugovoy gradus») hodisalar, tushunchalar orasida mavjud bo'lgan *aloqqani* ham ko'rsatib turadi;

b) murakkab termin sostavidagi biron so'zni izohlaydigan yana boshqa so'z bo'lmasligi (qavs ichida berilmasligi) kerak, aks holda termindan foydalanishda qiyinchilik bo'ladi. Masalan, zoologiya sohasidagi *mayda (pakana) gijja* termini, tuproqshunoslik sohasida yaratilgan *degradatsiyalangan* (aynagan) *qora tuproq* («chernozyom degradirovanny»), *tipik (oddiy) qora tuproq* («chernozyom obyknovenny»), *najas (fikal) o'g'iti* (udobrenie fekal'noe), matematika sohasidagi *erksiz (bog'liq) miqdor* («zavisimaya velichina»), *o'xshashlik (analogiya) metodi* («metod analogi») kabi terminlar muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lib, ularni ishlatish ancha noqulaylik tug'diradi.

v) murakkab terminlar sostavidagi har bir so'z boshqasi bilan affikslar yordamida yoki sintaktik tartib orqali birikkan bo'lishi kerak. Ularning ko'makchilar yoki bog'lovchilar vositasi bilan grammatik munosabatga kirishishlari ma'kul emas. Chunki yordamchi so'zlar vositasi bilan birikkan so'zlardan iborat bo'lgan murakkab terminlarning terminlik xususiyati bilinmay qoladi ~ oddiy, erkin birikmaga o'xshab ketadi. Masalan, *burchak bilan o'lchash* («uglovoe izmerenie»), *suv bilan buzilgan qora tuproq* («chernozyom smytyy»), *o'rta va chet nisbatda bo'lish* («zolotoe sechenie»).

Ko'rinib turibdiki, bu terminlar sostavila *bilan* ko'makchisining hamda *va* bog'lovchisining kelishi ularni jonli nutq elementlariga o'xshatib yuborgan.

7. Termin, odatda, fan, texnika va sanoat ishlab chiqarishiga oid bo'ladi. Hozirgi zamonda xalqlar orasidagi yaqin va mustahkam aloqa tufayli fan va texnikaga, ishlab chiqarishga oid tushunchalar ko'pincha umummillat va internatsional xarakterga egadir. Xalqlar orasidagi o'zaro aloqaning kuchli va mustahkam bo'lishi, tajriba almashinishi ishlab chiqarish qurollari va ilmiy tushunchalarning unifikatsiyalashtirilishiga, bir xillikka olib keladi. Shu tufayli terminlarning ham shakl va ma'no jihatidan internatsional xarakterga ega bo'lishi umum uchun ma'quldir.

8. Termin, odatda, ot(izm) bo'ladi. Uning otligi aniq anglashilmasa, termin uchun

xarakterli bo'lgan gapdan tashqarida ham aniq bir ma'no anglatish xususiyati mavjud bo'lmaydi. Xususan, sifatlik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar noqulaylik tug'diradi. Masalan, geografiyada ruscha *razrez* terminiga ekvivalent qilib *kesik* so'zining yasalişini muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Chunki *kesik* so'zi predmetni emas, balki belgi ma'nosini anglatadi.

Ot bo'lmagan so'zlar termin tusiga kirganlarida otlashib ketadi. Masalan, *ishlab chiqarish* asli fe'lining harakat nomi formasi bo'lib, termin sifatida otga ko'chgan.

### 1.1. Termin va kasb-hunar leksikasi

**Termin** so'zi orqali anglashiladigan tushunchani chegaralash hozirgi paytda tilshunoslar oldida turgan muammolar qatoriga kirib qoldi. Termin deb hisoblanadigan so'zlar doirasining ba'zan juda keng, ba'zan esa tor tushunilishi bunga sabab bo'lyapti.

Ba'zi tilshunoslar va mantiqshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so'z va iboralarinigina emas, barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarninggina zmas, o'tmishdagi primitiv qurollarning nomlarini ham, turli kasanachilik kasb-hunarlariga oid so'zlarni ham kiritadilar. Masalan, D. K. Zelenin rus tilining Vyatsk shevasidagi barqaror va beqaror so'zlar haqida fikr yuritganida XX asr boshlarida rus dehqonlari ishlatadigan turli qurollarning, uy-ro'zg'or asboblarining «termin-nomlari» haqida yozadi<sup>1</sup>. Hozirgi o'zbek terminshunoslarida ham bu tendentsiya uchrab turadi. Masalan, N. M. Murodov eskirib, iste'moldan chiqqan terminlar haqida fikr yuritir ekan, eski dehqonchilikka oid *qushchi*, *omoch*, eski zamon kiyimlari nomlariga oid *paranji*, *chachvon*, *salla*, *kavush*, feodalizm tuzumi uchun xarakterli bo'lgan *qozi*, *mufti*, *avliyo*, *shayx* so'zlarini misol qilib keltiradi<sup>2</sup>. Fargona shevalaridagi kasb-o'tmish davrlaridan tortib to hozirgi, ishlab chiqarishning mayda kustarchilik usuli o'rniga yiriklashgan sanoat rivojlangan davrgacha o'zbek hunarmandlari doirasida qo'llanib

<sup>1</sup> Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари.-Т.:Ўқитувчи,1968. –Б.:13.

<sup>2</sup> Муродов Н.М. Вопросы терминологии в узбекском языке. Объединенная научная сессия, тезисы докладов. –Т.:1964, -С:157.

kelgan professional so'zlarni qisman termin, so'z-termin deb, ko'proq kasb-hunar leksikasi deb yuritadi<sup>1</sup>. Undan keyin chevarlik leksikasini o'rganish bilan shug'ullangan T.T.Dadaxonova ham, taom nomlarini o'rganish bilan shug'ullangan N. Ikromova ham professional so'zlarni so'z-terminlar deb ataydilar<sup>2</sup>.

Xullas, keng ma'noda tushunilganida, birinchi navbatda har bir konkret narsa-predmetning nomini termin deb atash lozim bo'ladi. Termin shu xilda tushuniladigan bo'lsa, har qanday konkret turdosh otga nisbatan konkret va aniq bo'lgan ma'noni ifodalovchi atoqli otlar eng tipik terminlar deb hisoblanishi o'rinli bo'lar edi.

Demak, gap terminning *aniq* bir ma'noni ifodalashidagina emas. Bu jihatdan kasb-hunar leksikasi ilmiy-texnikaviy terminlardan, deyarli, farq qilmaydi.

Lug'at sostavining alohida bir guruhi sifatida ajratiladigan terminologiya, aslida aniq bir chegaraga ega bo'lgan ilmiy (falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy) xarakterdagi so'zlar sistemasidir. Bu sistema so'zlarning mexanistik yig'indisidan iborat bo'lmay, ma'no jihatdan o'zaro bog'langan, bir-biri bilan muvofiqlashgan, biri ikkinchisining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan so'zlar YIG'INDISI bo'lib, ularning bu xususiyati fan yoki texnika inshooti, qurollari, elementlarining o'zaro bog'langanligidan kelib chiqadi. Masalan, ichki yonish kamerasida tsilindr mavjud ekan, albatta, uning porsheni, gazni kiritib, chiqarib turadigan klapanlari ham bo'ladi. SHuning uchun *tsilindr* termini *porshen*, *klapan* terminlari bilan ichki jihatdan bog'langan, ularning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. SHu jihatdan terminologiyaning taraqqiyoti fan va texnikaning taraqqiyoti bilan birga boradi. Masalan, antik falsafaning rivoji o'sha davrda falsafiy terminlarning yaratilishini taqozo qildi. Ma'lumki, bu terminlar keyinchalik G'arbiy Evropa tillarida milliy terminologiyaning yaratilishida katta ahamiyat kasb etdi.

Shunday qilib, termin har qanday tushunchaning aniq temasi sifatidagina emas, balki ilmiy mohiyatini ifodalovchi vosita sifatida va, asosan, yozma shaklda maydonga keldi. Kasb-hunar leksikasiga kelganda esa, uning bir qancha muhim xususiyatlari

---

<sup>1</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I.-T.: 1965; II-III. –T.: 1959.

<sup>2</sup> Дадахонова Д. Чеварчилик лексикасига оид баъзи бир сўз-терминлар ҳақида.// ЎТА №1, 1963; Икромова Н. Таом номларини ифодаловчи сўз-терминлар ҳақида.// ЎТА, №4, 1964

uni termindan ajratib turadi.

Birinchidan, terminlar fan va texnikaning umumjahon miqyosida rivojlanishiga bog'liq holda umumjahon mazmuniga ega bo'lsa, kasb-hunar sohasida qo'llanadigan so'zlar, bir tomondan, ma'lum mahalliy chegaraga, ikkinchi tomondan, kichik bir kasb-hunargagina mansub bo'lganidan, juda tor ma'no munosabatiga egadir.

Shuning uchun, ikkinchidan, kasb-hunar leksikasining dialektal variantlari bo'ladi. Masalan, o'zbek metall ustalari Buxoroda bir naqshni *islimi bargi bodom* desalar, Farg'ona vodiysida *bodom bargi islimi, bodom bargi o'rama* deb yuritadilar. Hatto bir shevaning o'zida ham bunday variantlar mavjud. Masalan, degrezlik (cho'yan quyish) hunari sohasida Marg'ilonda arava gupchagi ichiga qoqiladigan quyma detal' *katta og'iz cho'yan, takcho'yan*, arava gupchagi labiga qoqiladigan quyma detal' *chuv cho'yan, chuvog'iz cho'yan, kichikog'iz cho'yan* deb har xil variantda nomlanadi. Yana solishtiring: *bo'z qum—bosqum* (cho'yan quyishda ishlatiladigan oddiy tuproq), *dashqol—cho'yan bo'qi* (shlak), *ichki o'q—tortma mix—kichik qil ichak* (qalam yug'onligidagi temir mix), *bulul—bulol—bilol—burul* (damdan keladigan havoni olovga yuboradigan temir naycha), *gulsun—gursun—go'rzum* (muhrkanlik va miskarlikda o'yib ishlanadigan kichkina doira shaklidagi naqsh elementi) va boiqalar<sup>1</sup>.

Kasb-hunar leksikasining hatto territorial dialektlarga xos xususiyatli lug'at birliklari deyilishidan ham ko'ra, ijtimoiy dialektlar jumlasiga kiritilganligi ma'lum. Masalan, mashhur rus tilshunosi E. D. Polivanov ustози I. A. Boduen de Kurtenening tilning «gorizontal» qatlami bo'lgan territorial dialektlari va «vertikal» qatlami bo'lgan ijtimoiy dialektlari hakidagi ta'limoti<sup>2</sup> asosida «kasb-hunar dialektlari»ni sinfiy dialektlar va yashirin jargonlar bilan birga ijtimoiy guruhlariga xos dialektlarga kiritishni lozim topgan edi<sup>3</sup>.

Bu fikrga qaraganda, ijtimoiy dialektlar bilan territorial dialektlar bir-biriga

<sup>1</sup> Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари.-Т.:Ўқитувчи,1968. –Б.:15

<sup>2</sup> В.Ф. Трахтенбергнинг “Блатная музыка” китобига И.А.Бодуэн де Куртене ёзган сўз боши, 1908. –с.:12

<sup>3</sup> Поливанов Е.Д. О фонетических признаках социально-групповых диалектов и в частности русского стандартного языка. –М.:1931. –С.: 117-138

karama-qarshi qo'yilganday bo'ladi. O'zbek tilidagi kasb-hunar leksikasiga kelganda, lug'at sostavining bu qatlami, bir tomondan, o'z ma'no sistemasiga, nominativ funktsiyasiga ko'ra ijtimoiy dialektlarga xos xususiyatga ega, chunki kishilarning ma'lum bir tor doirasidagina qo'llanadi. Bu— uning ijtimoiy dialektga xos tomonidir.

Ikkinchidan esa, kasb-hunar leksikasi, yuqorida ko'rsatilganidek, ma'lum territorial dialekt rangiga zga. Bu uning territorial dialektga xos tomoni.

Demak, kasb-hunar leksikasi o'zida ham ijtimoiy, ham territorial dialekt xarakterini birlashtiradi. Shuning uchun akademik V. M. Jirmunskiyning «...«territorial» va «ijtimoiy» dialektlarni qarama-qarshi qo'yishning o'zi aslida noto'g'ri deyish mumkin»<sup>1</sup>, degan fikrida haqiqat bor.

Aslini olganda, kasb-hunar leksikasi territorial dialektning ijtimoiy jihatdan qatlamlarga bo'linishini aks ettiradi. Shu jihatdan u territorial dialekt lug'at sostavining bir guruhini tashkil qiladi. Shuning uchun ham ilmiy terminologiyani bu kategoriyaga kiritish o'rinli bo'lmas edi, albatta.

Uchinchidan, kasb-hunar leksikasi hozirgi turmushda ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishi, turi bo'lgan predmetlarni emas, balki yuqolib ketgan yoki yuqolib borayotgan o'tmishning tarqoq va kuchsiz, hozirgi sanoat imkoniyatlari oldida qoloq bo'lgan ishlab chiqarish qurollari, ishlab chiqarish protsesslari nomlaridan iboratdir.

Demak, aslini olganda kasb-hunar leksikasi o'z mohiyatiga ko'ra allaqachon tarixiy so'zlar qatoriga kirgan yoki tarixiy so'zlar qatoriga allaqachon yo'l olgan, unutilib borayotgan so'zlardir. Shu sababdan, professional so'zlarni terminologik leksikadan ajratish o'rinli bo'ladi.

## **1.2. Terminlarning qo'llanishi**

Terminlarning qo'llanish jihatdan xususiyati bir xil emas. Ba'zan terminlar ma'lum fan yoki texnika sohasi bilan chegaralansa, ba'zilar turli sohada qo'llanishi mumkin. Bu masala ayrim so'zlarning ham termin, ham oddiy muomalada qo'llanishi kabi har

---

<sup>1</sup> Жирмунский В.М. О теории языкознания. —М.: АН СССР, серия литературы и языка, т. XXVI, 1967. —С.: 17

xillikka o'xshasa ham, undan o'zining ba'zi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Ma'lum fan, texnika sohasi bilan chegaralangan *metateza* (tilshunoslikning fonetika sohasi), *vektor* (fizika-matematika), *yashirin kurtak*, (botanika), *kor-byurator* (avtomashina) kabi terminlar mavjud terminlarning asosiy qismini tashkil qilsa ham, *operatsiya* (meditsina, moliya, harbiy ish), *assimilyatsiya* (fizika, fonetika, tarix-etnografiya), *morfologiya* (tilshunoslik, botanika, zoologiya), *agglyutinatsiya* (tilshunoslik, meditsina) kabi terminlar har xil fan sohalari doirasida qo'llanaveradi. Ammo bundan terminlar ham ko'p ma'noli bo'lar ekan degan xulosa chiqmaydi.

Terminlardagi polisemantizm bo'lib ko'ringan narsa, aslida, ulardagi monosemantik xususiyatlarning oddiy yig'indisidan iborat. Chunki har bir sohada termin faqat ma'lum bir chegaraga ega bo'lgan tushunchanigina anglatadi, uning boshqa sohadagi boshqa ma'nosi mutlaqo ko'zda tutilmaydi. Masalan, tilshunos *agglyutinatsiya* terminini qo'llar ekan, uning meditsina sohasida ikki xil qonning qo'shilib, yopishib cho'kishini mutlaqo esiga keltirmaydi. Demak, bir termin har xil kontekstda, har xil mutaxassislik sohasida qo'llanishi tufayligina turli ma'no ifodalashi mumkin, agar termin bir kontekstda, bir sohada bir necha ma'no anglatmagina, uning polisemantizmi haqida gapirish mumkin bo'lar edi. Vaholanki, xuddi mana shu xususiyatning terminlarda mavjud emasligi ular uchun juda xarakterlidir.

Ba'zi so'zlar, masalan, *polvon*, *halqalar*, *tana*, *yo'ldosh*, *so'z*, *gap*, *ega*, *aniqlovchi*, *to'ldiruvchi* kabilar oddiy muomalada o'zlarining polisemantik xususiyatlari tu-fayli goh u ma'noda, goh bu ma'noda qo'llanishlari bilan birga, ma'lum mutaxassislik, fan sohasida maxsus termin sifatida aniq bir ma'noda ham qo'llanadi. Masalan, *polvon* so'zi oddiy muomalada kuchli, katta, semiz kabi ma'nolarda qo'llangani holda, fizkultura va sport sohasida faqat kurash tushuvchi ma'nosida qo'llanib, kurash tushuvchining gavdasi katta bo'lishi mutlaqo shart emas. Shu kabi *halqalar* termini sport sohasida shipga osilgan ikkita arqon uchlariga mahkamlangan bir juft yog'och halqani, *tana* — botanika sohasida o'simlikning gavda qismini, *yo'ldosh (lar)* botanika sohasida yopiq urug'lilarning tursimon naylardagi

qo'shimcha hujayralarni, odam anatomiyasi sohasida bachadondagi bolani qon bilan ta'minlab turuvchi organni, kosmonavtikada er atrofida uchib yuradigan apparatni (kemani) anglatadi. Tilshunoslik sohasida qo'llanadigan *so'z, gap, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi* kabi terminlar ham faqat ma'lum tarzda ta'riflanadigan tushunchalarnigina anglatadi. Oddiy muomalada esa, yuqorida aytilganidek, ularning fikr, til, nutq, ish, narsa, xo'jayin, aniqlab beradigan kishi, to'ldiruvchi shaxs kabi ma'nolari borligi hammaga ma'lum. Shunday qilib, terminlar bir sohada qo'llanadigan, har xil sohada qo'llanadigan, shuningdek ham termin, oddiy so'z sifatida qo'llanadigan turlarga bo'linadi.

### 1.3. Terminlarning manbai

Terminlar oddiy muomaladagi so'zlardan, boshqa tillardan olingan so'zlardan yaratiladi yoki o'zbek tilining o'zida azaldan mavjud bo'lgan morfemalardan yasaladi. Kisqacha aytganda, terminologiya ona tilidagi mavjud materiallardan yoki tayyor holdagi terminlarni boshqa tillardan qabul qilish orqali, ya'ni «ichki», ham «tashqi» imkoniyatlar hisobiga boyiydi. Quyida mana shu har ikki asosiy manbaga to'xtab o'tamiz.

**Ona tilida** mavjud bo'lgan so'z va morfemalardan termin yasashda ikki yul borligi ma'lum: 1. Odatdagi so'zlarni termin sifatida qo'llash yo'li bilan termin yaratish. 2. Ona tilidagi so'z va morfemalar yordamida termin yasash.

1. Oddiy muomalada odatda qo'llanadigan so'zlar fan yoki texnika sohasida ma'lum bir narsaning (tushunchaning) nomi sifatida terminga xos xususiyat kasb etishi mumkin. Odatdagi so'z termin deb qabul qilinar ekan, o'sha so'z ifodalaydigan tushuncha belgilaridan yoki ma'nolardan birontasi termin anglatishi lozim bo'lgan predmet (yoki tushuncha)ning biron muhim belgisini bildiradi. Qolgan belgilar yoki ma'nolar hisobga olinmaydi. Masalan, botanika sohasiga oid bo'lgan *gul, poya, ildiz* («корень»), *tomir* («жила»), *mag'iz* («ядро»), *chang* («пыльца») kabi terminlar, matematika sohasiga oid *chiziq* («линия»), *doira* («круг»), *aylana* («окружность»),

*bug'in* («ЗВНО»), *ishora*, *belgi* («ЗНАК»), *nuqta*, *markaz*, *o'q*, *kesma*, *nur* (chiziq ma'nosida), *uchburchak*, *asos*, *yuz*, *tomon* kabi terminlar, anatomiya **sohasiga** oid *yurak* («сердце»), *suyak*, *ichak*, *o'pka*, *jigar*, *qon* kabi terminlar odatdagi kundalik turmushda bo'ladigan muomala so'zlaridir.

Bu kabi so'zlarning termin bo'lishlari uchun ular maxsus ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan ta'riflanadi, qanday mantiqiy mazmun berilganligi chegaralab ko'rsatiladi. Shu kabi ishni terminologiyani tartibga solib turuvchi ilmiy tashkilotlar, komissiyalar ham bajaradi.

2. Fan va texnika sohalarida yangi tushuncha yoki predmet paydo bo'lganida, ba'zan uni ona tilida mavjud bo'lgan til materiali (so'z va morfemalar) vositasi bilan yangi termin yasab ifodalash qulayroq bo'ladi. (Yangi tushuncha bir kollektivga boshqa tilda so'zlashuvchi ikkinchi bir kollektivdan o'sha boshqa kollektiv tilida yozilgan adabiyotlar orqali yoki ishlab chiqarish protsessining o'zida kirib kelishi mumkin.)

Ona tili imkoniyatlaridan foydalanib, yangi termin yasashda so'zlarni (so'z formalarini) biriktirish yoki so'z yasovchi affikslar yordamida yasama so'z hosil qilish usullaridan keng foydalaniladi.

Hozirgi o'zbek tilidagi terminlar kundalik madaniy, iqtisodiy munosabatlar talabi bilan rus tilidagi terminlarning ma'nosini ifodalash asosida ham yaratiladi.

Demak, hozirgi o'zbekcha terminlarning bir talay qismi ifoda materiali jihatidan o'zbekcha bo'lib, ma'nosi (mazmun tomoni) rus tilidan olingan. Shuning uchun ham termin yasashda kalakalash (aynan tarjima qilish, «nusxa olish») usulidan keng foydalaniladi. (Ammo hamma vaqt yangi termin yasashda aynan tarjima qilish imkoniyati bo'lavermaydi.) So'z yasovchi affikslar yordamida termin yasashning o'ziga xos bir xususiyatiga e'tibor berish ham lozim.

So'z yasovchi yordamida yasalgan yangi so'z (termin) ko'pincha sun'iy bo'ladi. Chunki u umumxalq tomonidan emas, ayrim shaxslar (olimlar, tarjimonlar) tomonidan yaratiladi. Masalan, *uzgich* («прерыватель»— avtomashinada), *bosim* («давление»—fizika, ximiya, fiziologiya, avtomashina), *changchi* («тычилка»— botanika), *urug'i* («пестик»—botanika), *unish* («прорастание»— botanika),

*hisoblash* («вычисление»— matematika), *qoldiq* («вычет»—matematika), *sig'im* («ёмкость»— fizika), *birlik* («единица»—fizika, matematika, tilshunoslik va b.), *uzoqlik* («долгота»—matematika), *o'lchagich* («измеритель»— matematika) so'zlaridan *uzoqlik*, *unish*, *hisoblash* so'z va so'z formalari (fe'lining harakat nomi formalari)gina umumxalq nutqidan olingan. Qolganlari tor mutaxassislik doirasidagina qo'llanadigan sun'iy so'zlardir.

Bundam terminlarni yaratishda ma'lum bir maqsad, belgi va xususiyatni ifodalash aniq ko'zda tutilgani uchun ularning ma'nolari morfemalari tashiydigan ma'nolari yig'indisidan iborat bo'ladi. Spu jihatdan yasama terminlarning ilk ma'nolari (yoki «ichki formalari») aniq anglashilib turadi. Boshqa so'zlarda esa «ichki forma» (ya'ni shu so'zning yasalish paytidagi ilk ma'nosi) asta-sekin unutilishi mumkin.

So'z yoki so'zning grammatik formalarini biriktirish yo'li bilan yasalgan terminlarning ilk ma'nosi ayniqsa aniq anglashilib turadi. Masalan: *yondirish raltagi* («катушка зажигания»—avtomashina), *havo tozalagich* («воздухоочиститель»—avtomashina), *tezlatkich nasos* («ускорительный насос»—avtomashina), *salt yurish* («холостой ход»— avtomashina), *tenglik ishorasi* («знак равенства»—matematika), *er o'lchash* («землемерие»— matematika), *qasrning mahraji* («знаменатель дроби»— matematika), *tortilib turuvchi yo'y* («стагиваемая дуга»— matematika), *yuqori had* («высший член»—matematika), *yuqori xona* («высший ряд»—matematika) va b.

O'zbek tilining o'z imkoniyatlaridan foydalanibgina butun terminologiyani yaratish va terminlarga bo'lgan ehtiyojni qoplash mumkin emas, hatto, ashaddiy puristlar<sup>1</sup> ham bunga erisholmaganligi ma'lum.

Masalan, kalkalash yo'li bilan termin yasashni olaylik. Bu yo'l bilan termin yaratish, yuzaki qaraganda, juda qulay va osonday ko'rinadi, haqiqatda esa kalkalashning ma'lum salbiy tomonlari bor. Buning sabablari tubandagilar:

a) kalkalab yasalgan yangi so'z haddan tashqari sun'iylikidan jamoatchilikning

---

<sup>1</sup> Пуризм – лот. Purus - “тоза” сўзидан, тилни бошқа тилдан кирган сўзлардан тозалаш ҳаракати.

tushunishi qiyin bo'lishi mumkin. Buning ustiga terminning ichki formasi termin ifodalashi lozim bo'lgan predmetning biron muhim xususiyatini aks ettirmaganligini hisobga olsak, bunday terminning istiqboli bo'lmaydi. Masalan, *achchil* («kislород»), *suvchil* («vodorod»), *sham* («svecha—avtomashina»), *yondirish shami* («svecha zajiganiya»— avtomashina), *sovitish kuylagi* («rubashka oxlojdeniya»— avtomashina) kabi terminlar ana shunday haddan tashqari sun'iy yasalgan bo'lganligidan shu kasb egalari tomonidan ma'kullanmadi. Shning uchun tabiiy fanlar sohasida o'zbek tili grammatikasiga xilof ravishda tuzilgan *achchil* (*achchi[q]+l* tarzida so'z yasalmaydi) o'rnida *kislород*, morfemalarining ma'nosi termin ifodalashi lozim bo'lgan gaz tushunchasiga tugri kelmagani uchun *suvchil* urnida *vodorod* termini qo'llanadigan bo'ldi (chunki *suv* + *chil* so'zi suvga mo'l, suvi mo'l ma'nolarini anglatadi).

*Sham* so'zi ham tsilindrda siqilgan yonilg'i aralashmasining yonishi uchun xizmat qiladigan juda qisqa vaqtda paydo bo'ladigan elektr uchquni hosil kiluvchi degan ma'noni anglata olmaydi. SHuning uchun ham avtomobil transporti xodimlari o'zbekcha darslik va qo'llanmalarda ba'zan uchraydigan *sham* terminini mutlaqo tilga olmaydilar. Xuddi shu kabi *sovitish kuylagi* termini ham noma'qul bo'lib, uning o'rniga *sovitish sistemasi* yoki *sovitish yo'li* terminini qo'llash kulayroqdir. «Sovitish» tushunchasi bilan «ko'ylak» tushunchasining mazmunlari bir-biriga zid ekanligi, so'ngra *ko'ylak* so'zining doim biron mato bilan bog'lik ekanini eslatib turishi *sovitish*, *ko'ylagi* terminini qo'llash noqulay ekanligidan dalolat beradi.

Bir vaqtlar Abu Ali ibn Sino hukmdorlardan biri (Alavuddul Abu Ja'far Muhammad) ning buyrug'i bilan «Donishnomai Aloiy», «Kurazat at-tabiyot» asarlarini fors tilida yozgan edi. Ammo XII asr tabiatshunoslaridan bo'lgan SHohimardonning ko'rsatishicha, Abu Ali ibn Sino o'zining «Donishnoma» asarini Alavuddulga taqdim qilganida, hukmdor uni o'qib hech narsaga tushunmagan<sup>1</sup>. Chunki arab tilida mavjud bo'lgan va shu vaqtgacha qo'llanib kelgan arabcha ilmiy terminologiya fors tiliga tarjima qilinganida, hech kimga ma'lum bo'lmagan yangi,

---

<sup>1</sup> Болдырев А.Н. Из истории развития персидского литературного языка. //ВЯ. №5.1955. —С.:83

sun'iy terminlar yaratilgan edi. Bundam sun'iy so'zlar fors tilida yozilgan asarning mazmunini tushunishda qiyinchilik tug'dirgan edi. Shuningdek, bunga yana bir sabab shuki, u vaqtlarda ilm-fan jamoatchilik orasida, hatto saroy ahllari orasida ham, keng yoyilmagan, umumiy ilmiy tayyorgarlik Ibn Sino singari ulug' olimlarning bilimidan tuban turgan;

b) kalkalash yo'li bilan termin yaratish yana shuning uchun ham har vaqt muvaffaqiyatli bo'lavermaydiki, u originalda (masalan, ruscha terminda) mavjud bo'lgan yangilik yoki zamona ruhiga moslik, ma'lum sohaga xoslik kabi ottenkalarni ifodalay olmaydi. Shuning uchun *simmetriya*, *svecha*, *filtr* o'rnida *moslik*, *sham*, *so'zg'ich* yoki *tozalagich* so'zlari qo'llanmaydi. Shoferlar *nakidnoy klyuch*, *toretsli klyuch* kabi terminlarda *klyuch* so'zini *kalit* so'zidan afzal ko'rganlari holda, soatsozlikda soat prujinasini buraydigan asbobni *kalit* deyaveradilar. Bu so'nggi misol terminning ma'lum soha, kontekst bilan zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Ba'zan terminni to'la tarjima qilib bo'lmaydi. Bunday paytda termin sostavidagi ayrim so'zlar tarjima qilinib, ayrimlari tarjima qilinmaydi—originaldagicha qoldiriladi, boshqacha aytganda, «yarim kalkalash» usulidan foydalaniladi. Masalan: *havo zaslonkasi* (воздушная заслонка), *ignasimon klapan* (игольчатый клапан), *yondirish svechasi* (свеча зажигания), *qon gruppalari* (группа крови), *gaz almashuvi* (обмен газа, газообмен), *o't kislotasi* (желчная кислота) va b.

Ko'p hollarda esa terminni mutlaqo tarjima qilib bo'lmaydi.

Terminologiyani yaratishdagi **ikkinchi manba** boshqa tillardagi, xususan, bevosita tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan xalqlarning tillaridagi so'z va terminlardir.

Boshqa tillardan olingan terminlar yoki boshqa tillardagi so'zlardan tug'ilgan terminlar, ko'pincha, atoqli otlar singari bir ma'noli bo'lib, odatdagi so'zlardan ajralib turadi. Masalan: *buldozer*, *telefon*, *porshen*, *sarlavha*, *vergul* va b.

Boshqa tildan so'z va termin olishning sabablari quyidagilardan iborat:

1. Turmushga kirib kelayotgan yangi predmet yoki tushunchani ifodalaydigan so'z ona tilida mavjud bo'lmaydi. Masalan, *glushitel*, *poplavok* (avtomapshnada), *tolkatel*,

*otvyortka, starter, shtangentsirkul* kabi terminlarning o'zbek tilida ekvivalenti yo'q. Shuning uchun bunday hollarda rus tilidagi tayyor termindan foydalanilaveriladi.

2. Ona tilidagi vositalar bilan tarjima qilish terminning ma'nosini to'la va to'g'ri ifodalash imkonini bermasligi mumkin. Masalan, *poplavokni suzgich* yoki *suzuvchi, glushitelni o'chirg'ich, temperaturani harorat* yoki *issiqlik* deb bo'lmaydi. Chunki, masalan, o'zbek tilidagi *harorat* yoki *issiqlik* so'zlari Selsiy hisobida 0° dan yuqori bo'lgan temperaturaga ishora qiladi. *Temperatura* termini esa 0° dan past bo'lgan darajani ham ifodalayveradi. Shuningdek, *temperament* (psixologiya, fiziologiya sohasida) o'rnida *mijoz* (yoki *mazoj*) so'zini qo'llab bo'lmaydi. Chunki *mijoz* so'zi *temperament* ma'nosinigina emas, balki xarakter, tabiat (*natura*) ma'nolarini ham bildiradi. Hatto keyingi ma'nolar *temperament* ma'nosiga nisbatan ustun turadi. Ko'p hollarda umum tomonidan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy terminlardan iborat bo'lgan zaruriy chet so'zlarni tarjima qilish mumkin bo'lganida edi, ularga ehtiyoj ham bo'lmas edi. Binobarin, tarjima ma'noni buzadi, tushuntirish o'rniga adashtiradi. Biroq bundan tarjimaga butunlay qarshi bo'lish kerak degan xulosa chiqmaydi. Bu erda gap hammaga singib ketgan terminlarni tarjima qilishning zarur emasligi haqida boradi.

Internatsional xarakterdagi terminlar (internatsionalizmlar) millatlararo qo'llana bergani uchun fan, texnika, siyosat, madaniyat sohalarida biz bilmagan tilda yozilgan adabiyotlarni tushunishni, ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Termin bir xil bo'lsa, fonetik va morfologik jihatdan bo'ladigan ba'zi o'zgarishlar tushunishga u qadar xalaqit bermaydi.

### **I bob yuzasidan xulosalar.**

1. Terminlarni mantiqiy jihatdan ta'riflash mumkinligi esa ularni boshqa so'zlardan ajratish imkoniyatini beradi. Mantiqiy - ta'riflash termin sifatida olingan so'zdan anglashiladigan tushunchaning bir necha muhim belgisini ifodalash demakdir.
2. Termin hamma vaqt — gapda ham, gapdan tashqarida ham bir ma'noli bo'ladi. Uning bir ma'noli bo'lishi ma'lum fan yoki ma'lum sohadagina qo'llanish

hususiyati orqali yuzaga keladi.

3. Termin so'zning ko'pincha qo'llaniladigan asosiy (bosh) ma'nosigagina tayanmaydi, balki ko'chma (yoki yasama) ma'nolariga ham asoslanadi.
4. Odatdagi so'zlar tuzilish jihatidan sodda yoki qo'shma bo'ladi. Terminlar esa sodda va qo'shmalikdan tashqari, murakkab (ya'ni birdan ortiq so'zlarning grammatik tobelik munosabatiga kirishiga asoslangan turg'un birikma holatida) *ham* bo'ladi.
5. Lug'at sostavining alohida bir guruhi sifatida ajratiladigan terminologiya, aslida aniq bir chegaraga ega bo'lgan ilmiy (falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy) xarakterdagi so'zlar sistemasidir.
6. Terminlar fan va texnikaning umumjahon miqyosida rivojlanishiga bog'liq holda umumjahon mazmuniga ega bo'lsa, kasb-hunar sohasida qo'llanadigan so'zlar, bir tomondan, ma'lum mahalliy chegaraga, ikkinchi tomondan, kichik bir kasb-hunargagina mansub bo'lganidan, juda tor ma'no munosabatiga egadir.
7. **Ona tilida** mavjud bo'lgan so'z va morfemalardan termin yasashda ikki yul borligi ma'lum: 1. Odatdagi so'zlarni termin sifatida qo'llash yo'li bilan termin yaratish.  
2. Ona tilidagi so'z va morfemalar yordamida termin yasash.
8. Terminologiyani yaratishdagi **ikkinchi manba** boshqa tillardagi, xususan, bevosita tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan xalqlarning tillaridagi so'z va terminlardir.

## **II bob. ME'MORIY INSHOOTLAR NOMLARINING ONOMASIOLOGIK TAHLILI**

### **2.1. Me'moriy inshootlar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari**

Respublikamiz o'zining moddiy madaniyat yodgorliklari, takrorlanmas me'moriy san'at obidalari bilan jahon madaniyati xazinasida o'ziga xos o'rin tutadi. Moddiy madaniyat yodgorliklari tarixi xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tarixi, milliy madaniyat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston me'morlik san'ati obidalari moddiy madaniyatimiz sahifalarining o'lmas lavhalari sanaladi.

Me'moriy inshootlar ikki ijtimoiy-tarixiy davr ijod mahsuli bo'lganidan ularning nomlanish printsiplari ikki xil ijtimoiy davr xarakteri o'z aksini topgan. Jumladan, qadimiy me'moriy inshootlarning terminlarida ko'proq fors-tojik, arab tilidan kirgan istorizm so'zlar ko'proq uchrasa, zamonaviy inshootlar nomlarida ruscha va rus tili orqali o'zlashgan neologizm so'zlar keng qo'llanadi.

Me'moriy inshootlarning nomlari va nomlanish tarixi inshootlarning maydonga kelish tarixi bilan, uning ijodkori bo'lgan xalq tarixi bilan uyg'unlashib ketadi. Qadimiy obidalar nomlarining semantik tabiatini ko'zdan kechirsak, nomlar inshootlarning yaratilish tarixi, ularning ijodkori bo'lgan xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi bilan bevosita aloqador ekanligining shohidi bo'lamiz.

Xalq san'atini asrlar osha avloddan-avlodga avaylab etkazgan xalq me'morlari o'z nomlarini san'at sirlarining kuchiga tayanib, turli yo'llar bilan yozib qoldirganlar. Jumladan, Buxorodagi Minorai Kalon 1127- yilda Arslonxon farmoni bilan qurilgani ma'lum edi. Aniqlanishicha, minoraning g'ishtin bezaklari orasiga muammo qilib ustod Baqoning nomi yozilgan ekan.<sup>1</sup>

Me'moriy inshootlar nomlari tarixini o'rganish tilimiz leksik sostavida onomastik, toponimik nomlarning paydo bo'lish tamoyillarini aniqlashga yordam beradi.

---

<sup>1</sup> Зоҳидов П.Ш. Ўша асар.Т.:1978. 26-бет.

Ma'lumki, Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlari o'zining arxitektura yodgorliklari, amaliy san'at namunalari bilan "arxitektura muzey shaharlari" deb nomlanadi. Bu betakror obidalarining yaratilishi, nomlanishi bilan aloqador bo'lgan tarixiy faktlardan ba'zilar bilan tanishamiz.

Ark. (f-toj.) – poytaxtdagi qo'rg'on, qasr, xon yoki amr saroyi. Ark Buxoro shahrining eng qadimiy arxitektura yodgorligidir. Arablar istelosiga qadar arkda shahar hokimlari yashagan. Uning hozirgi qiyofasi XIV asrda Shayboniylar davrida shakllangan.

Ismoil Somoniy maqbarasi (IX-X asrlar). Maqbara kvadrat shaklida pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning ichki va tashqi devorlari har xil usulda g'isht terib hosil qilingan jimjimalardan iborat. Jahon arxitekturasida bunday usulda bezatilgan birorta boshqa tarixiy yodgorlikni ko'rgan emas. Ming yillar davomida o'zining ko'rkini ko'z-ko'z qilib turgan "Ismoil Somoniy maqbarasi" YUNESKO muhofazasida turadi. Yodgorlik nomi uni qurdirgan tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq.

Minorai kalon (a-f-toj.) – "katta minora" yodgorligi 1127-yilda qoraxoniylardan Arslonxon hukmronlik qilgan davrda qurilgan.

Go'ri Amir (XV asr). Samarqand me'morchilik yodgorliklaridan bo'lgan "Go'ri Amir" inshooti "Muhammad Sulton ansambli" nomi bilan ham mashhur. Burchaklarida minoralari bo'lgan chorsi hovli. Hovlining janubida qirrador gumbazli sakkiz burchak shaklidagi dahma. Bu daxmani Temur sevimli nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirgan. Shu sababli "Go'ri Amir" yodgorli "Muhammad Sulton ansambli" nomi bilan ham atalgan. "Go'ri Amir" nomlanishining sababini tushunish oson. Bu daxmaga temuriylar sarkardasi Temur va uning avlodlaridan bir nechtasi dafn etilgan.

Registon ansambli. (f-toj. Reg – qum, iston – joy ma'nosidagi affiks) – *qumli maydon* demakdir. Samarqandning bu hashamatli me'moriy ansambli mo'g'ullar istilosigacha savdo-sotiq va hunarmandchilik markazi bo'lgan. Temur davrida Registon shaharning bosh maydoni edi.

Ulug'bek madrasasi. XV asr me'morchiligida yangi sahifa ochgan bu madrasa mashhur olim, buyuk astronom Ulug'bek boshchiligida 1420 yilda qurilgan va uning nomi bilan atalgan. Binoning tashqi burchaklarida 4 ta minora, hovliga kiriladigan *yo'lak peshtoqining gumbazi* tepasida bezatilgan uch burchakli *tokcha* ishlangan. O'z davrining Aflotuni deb nom olgan Qozizoda Rumiylar shu madrasada astronomiyadan dars bergan.

Sherdor madrasasi. (1619-1636). Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir qurdirgan bu madrasa arxitekturasi jihatidan Ulug'bek madrasasining takroriga o'xshaydi. *Naqsh* kompozitsiyasi, *zarhal naqshlari* bir xil. Ammo *katta peshtoq ravog'i* tepasidagi *timpan* diqqatga sazovor. Unda qizg'ish – zarhal sherning oq ohuni quvib ketayotgan va quyosh tasviri aks ettirilgan. Shunga ko'ra madrasa "Sherdor" deb nomlangan.

Tillakori madrasa (1647 - 1660). Bu madrasa-masjidning qurilishi Registon ansamblini mukamallashtirgan. Masjidning moviy rang gumbazi asosiy xonasi ichkari *kundal usulida* bezatilgan. Bo'rtma naqshlarga. Marmar mehrobga muqarnas yulduzchalariga qur'on oyatlari bo'rtma harflar bilan yozilgan. Marmar *izoralarga* zarvaraq oltin qoplanganligi sababli bu madrasa tillakori, ya'ni oltin bilan ishlangan ma'nosida nomlangan.

Shohizinda (XI-XV). Samarqandning shimoli-sharqiy tomonida tepalik bag'rida joylashgan maqbaralar gruppasi – zodagonlar daxmalari joylashgan. Bu yodgorliklar kompleksi – Shohizinda deb nomlangan. Rivoyatlarga qaraganda, Shohizinda nomi Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Qusam ibn Abbasning qabri bilan bog'liq. Qusam ibn Abbas VII asrda arab istilochilari bilan birga Samarqandga kelgan islom targ'ibotchilaridan biri bo'lgan. U namoz o'qib turgan vaqtda dushmanlar hujumiga uchragan va shu onda ko'zdan g'oyib bo'lgan emish. Shu sababli yodgorlik SHohizinda, ya'ni "tirik shoh" deb nomlangan. Shoh – podshoh, zinda – tirik, barhayot demakdir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Турсунова Т. Меъморчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Т.:Фан, 1987. 60-бет.

Me'morchilikda qadimdan traditsiya bo'lgan maqbara, madrasa, masjid, xonaqohlar, saroylar qurish O'zbekistonining hamma shaharlarida bizning asrimizgacha davom etib keldi. Hozirgi paytda O'zbekistonda etti mingdan ortiq arxeologiya, arxitektura va san'at yodgorliklari mavjud.

Qadimiy inshootlarning nomlari leksik-semantik xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadilar. Me'moriy inshootlarning nomlari quyidagi semantik tamoyillarga ko'ra nomlangan:

1. Me'moriy qurilmalarning tashqi ko'rinishi va belgi-xususiyatiga ko'ra: *Minorai kalon, Katta minor, Chor minor, Masjid Kalon, Sherdor madrasa, Oq saroy.*
2. Ishlanish xususiyati, ish uslubi va materialiga ko'ra: *Tillakori madrasa, Tosh hovli.*
3. Diniy aqidalarga ko'ra simvolik xarakterda nomlanadi: *Mo'yi muborak, Shohizinda.*
4. Inshoot qurilgan joyning xususiyatiga ko'ra nomlanadi: *Registon* (reg – qum, iston – joy ma'nosidagi affiks), *Mag'oki attori masjidi* (mag'ok – chuqurlik, attori – attor, turli mayda-chuyda mollar bilan savdo qiluvchi shaxs). *Mag'oki attori masjidi* – attorlar rastasi joylashgan chuqurlikdagi masjid demakdir.
5. Me'moriy qurilmaning vazifasi yoki unda bajariladigan kasb turiga ko'ra nomlanadi: *Toqi zargaron* – zargarlar gumbazi, ya'ni zargarlik rastasi, zargarlar do'koni joylashgan gumbaz , *Toqi telpakfurushon, Toqi kitobfurushon* kabi. (Toqi - gumbaz).
6. Me'moriy inshoot shu qurilma bilan aloqador shaxsning laqabi, kasbi bilan ataladi: *Polvon pir, Polvon bobo* (Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasiga nisbatan), *Mir Arab madrasasi* (Mir Arab – yamanlik Shayx Abdulloning laqabi ), *Shayxi Zayniddin bobo.*

7. Inshoot unda istiqomat qiluvchilarga nisbatan simvolik tarzda nomlanadi: *Sitorai mohi xossa*. Terminning ma'nosi "Yulduz va oylarga xos joy ki ichkarining(haramning) bir kishiga xos oy va yulduzlari" demakdir.
8. Inshoot uning qurilishi bilan yoki bu darajada aloqador bo'lgan oliy martabali yoki badavlat shaxslar nomi bilan atalgan: *Abdulazizxon madrasasi, Bibixonim masjidi, Shayx Xovondi Tahur* (Shayx Xovondi Tahur-Shayxantahur).

| Me'moriy inshootlarning nomlanishi asoslari |                                                                       |                                                              |                                                                                             |
|---------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| №                                           | Nomlanish asosi                                                       | Misollar                                                     | ma'nosi                                                                                     |
| 1                                           | Me'moriy qurilmalarning tashqi ko'rinishi va belgi-xususiyatiga ko'ra | <i>Minorai kalon, Chor minor, Sherdor madrasa, Oq saroy.</i> | Katta minora, to'rt minorali, Sheri bor, Oq rangli                                          |
| 2                                           | Ishlanish xususiyati, ish uslubi va materialiga ko'ra                 | <i>Tillakori madrasa, Tosh hovli</i>                         | Tilladan yasalgan, tosh yotqizilgan                                                         |
| 3                                           | Diniy aqidalarga ko'ra simvolik xarakterda nomlanadi                  | <i>Mo'yi muborak, Shohizinda.</i>                            | Payg'ambarlarning mo'yi qo'yilgan, Qusam ibn Abbos (payg'ambar s.a.v. amakivachchasi) qabri |
| 4                                           | Inshoot qurilgan joyning xususiyatiga ko'ra nomlanadi                 | <i>Registon</i>                                              | reg – qum, iston – joy ma'nosidagi affiks                                                   |
| 5                                           | Me'moriy qurilmaning vazifasi yoki unda                               | <i>Toqi zargaron</i>                                         | zargarlar gumbazi, ya'ni zargarlik rastasi, zargarlar do'koni                               |

|   |                                                                                                                          |                                               |                                                                                        |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|
|   | bajariladigan kasb turiga ko'ra nomlanadi                                                                                |                                               | joylashgan gumbaz                                                                      |
| 6 | Me'moriy inshoot shu qurilma bilan aloqador shaxsning laqabi, kasbi bilan ataladi                                        | <i>Mir Arab madrasasi</i>                     | Mir Arab – yamanlik Shayx Abdulloning laqabi                                           |
| 7 | Inshoot unda istiqomat qiluvchilarga nisbatan simvolik tarzda nomlanadi                                                  | <i>Sitorai mohi xossa</i>                     | Yulduz va oylarga xos joy yoki ichkarining(haramning) bir kishiga xos oy va yulduzlari |
| 8 | Inshoot uning qurilishi bilan yoki bu darajada aloqador bo'lgan oliy martabali yoki badavlat shaxslar nomi bilan atalgan | <i>Bibixonim masjidi, Shayx Xovondi Tahir</i> | Shayx Xovondi Tahir-Shayxantahir                                                       |

## 2.2. Me'morlik terminlarining tematik guruhlar

Me'morchilik san'ati leksikasi adabiy til leksik sostavining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos leksik sistemadir. Leksik sistemani tematik guruhlariga bo'lib o'rganish ma'lum ob'ektga xos til faktlarini har tomonlama chuqur o'rganish imkonini beradi. Tematik guruh so'zlarning leksik-semantik aloqalarini emas, predmet va hodisalarning turlariga asoslangan guruhdir, ya'ni ma'lum bir mavzu bo'yicha birlashgan terminlar guruhidir.

Me'morlik san'ati terminlari me'moriy qurilmalarni bezash san'ati bilan aloqador bo'lgan qator sohalar leksikasini o'zida birlashtiradi. Binobarin, amaliy san'atning naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, toshtaroshlik, klshinkorlik kabi sohalar leksikasi me'morlik san'ati alohida tematik guruhlarini tashkil etadi. Bunday tematik guruhlarini shakllantiruvchi predmetlar, hodisalarni nomlovchi so'zlar o'z tabiatiga ko'ra yana alohida guruhlarga bo'linishi mumkin. Me'morlik terminlarini quyidagi tematik guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Naqqoshlik terminlari.
2. O'ymakorlik atakmalari.
3. Ganchkorlik terminlari.
4. Yog'och o'ymakorligi terminlari.
5. Toshtaroshlik terminlari.
6. Koshinpazlik terminlari.

Naqqoshlik yirik inshootlar, binolar devori, shiplvari va yog'och buyumlarga sirkoriy bezak berish, mo'yqalam yordamida naqsh chizish bilan shug'ullanuvchi soha, kasb oti. Naqqoshlik amaliy san'at turlaridan bo'lib, me'morlik san'atining uzviy qismidir. Binobarin, naqqoshlik san'ati tarixi ham me'morlik san'ati tarixi kabi qadimiydir. Arxeologik qazilmalar, tarixiy yodgorliklarning davrimizga etib kelgan namunalari, jumladan, Bolalik tepa devoriy naqshlari (V-VI), Yumaloq tepa (VI-VII, Surxon viloyati) dan topilgan sirkorlik va o'ymakorlik bezaklari, Varaxshaning naqqoshlik, ganchkorlik bezaklari (VI-VII, Buxoro oblasti)<sup>1</sup> yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Naqqoshlik san'ati qadimda tasviriy san'at bilan ko'proq yaqin bo'lgan. Yirik inshootlar, saroylarning devoriy bezaklarida jonli mavjudotlar, qushlar, hayvonlar, hatto odamlar tasviri aks ettirilgan. O'rta Osiyoda arablar istilosi davridan boshlab, jonli mavjudotlar tasviri man etildi, shunga qaramay, xalq san'ati turlari butunlay yo'qolmadi, o'z oqimida astag'sekin rivojlana bordi. Jumladan, dunyoga mashhur Afrosiyob shoh saroyi xarobalaridan (XI-XII asrlar)

---

<sup>1</sup> Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. Т.: 1961. С.72

topilgan devoriy tasvirlardan birida noma'lum musavvirning qilqalami bir Malika qizning kuyovga uzatish manzarasini aks ettirgan. Amir temurning Samarqand atrofidagi saroy bog'larida harbiy mavzudagi tasvirlar ham bo'lganligi manbalarda qayd etilgan.

Naqqoshlik terminsining o'zbek tilida sirkorlik varianti ham mavjud, Naqqoshlikning ish qurollari naqsh sxemasi, andaza(axta), turli hayvonlarning mayin junidan tayyorlangan katta-kichik mo'yqalamlar (cho'tkalar) va chizg'ichlardir. Naqqosh asrlar davomida o'z san'atini, asosan, mo'yqalam yordamida namoyish qilib kelgan. O'ymakorning quroli esa turli shakldagi iskana qalamlardir.

O'ymakorlik. Amaliy bezak san'atining qadimiy va eng keng tarqalgan turlaridan biri. O'ymakorlik usulida bino qismlari, uy- ro'zg'or buyumlari, turli asboblarni naqshlanadi. O'ymakorlik naqshlanadigan materialga ko'ra, ganch o'ymakorligi - ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligini, metall o'ymakorligi – kandakorlik, suyak o'ymakorligi kabi turlarga bo'linadi.

Ganchkorlik ganch o'ymakorligi usulida naqsh ishlash bilan shug'ullanuvchi soha, kasb oti. Ganchkorlik san'ati o'ymakorlikning bir ko'rinishi, me'morlikning tarkibiy qismidir. Bu sohaning ham o'ziga xos taraqqiyot tarixi, bosib o'tgan yo'li, asriy an'analari mavjud. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, me'moriy yodkorliklarni ko'zdan kechirarekanmiz, ganchkorlik amaliy san'atning qadimiy turlaridan biri ekanligining shohidi bo'lamiz. Tuproq qal'a (III asrlar), Varaxsha saroyining qoldiqlari (V-VIII asrlar), Qadamiy Samarqand – Afrosiyobdagi qator inshootlar (X-XII asrlar), Buxorodagi Mag'oki Attori masjidi tagidan topilgan (IX-X asrlar) ganchkorlik qoldiqlari va boshqa san'atning azaliy namunalari<sup>1</sup>.

Yog'och o'ymakorligi. Amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligi ham qadim tarixga ega. Yog'och o'ymakorligidan ilgari, asosan, me'morlik san'atida va ro'zg'or buyumlarini bezatishda foydalanilgan.

---

<sup>1</sup> Турсунова Т. Меъморчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Т.:Фан, 1987. 81-бет.

O'ymakorlikning bu sohasida naqsh yog'ochni o'yib, kesib, chizib, teshib, taxta yoki yog'och buyumlarini bir-biriga yopishtirib hosil qilinadi.

Asrlar davomida o'sib, sayqallanib kelgan bu san'atning O'zbekiston shaharlarida o'ziga xos usul va uslublari paydo bo'ldi. Jumladan, Xiva shahri o'zining monumental o'ymakorligi bilan mashhur. Xivalik ustalar o'ymakorlikda yog'ochning tabiiy rangini saqlab qolish uchun hech qanday bo'yoq qo'llamaydilar. Buxorolik o'ymakor naqsh zaminiga rang beradilar va nashqlarga oltin, kumush hal beradilar. Marg'ilon o'ymakorlari o'ymakorlikning *chuqur zaminli yassi o'yma* uslubidan foydalanadilar. Qo'qonlik ustalar *kalta bo'rtmali yassi o'yma* usulini, toshkentlik ustalar yuzasi naqsh bilan qoplangan *yassi bo'rtmali, zaminsiz, chizma* usulini<sup>1</sup> yoqtiradilar. Odatda yog'och o'ymakorlari rassom, chizmachil naqqoshlar bilan hamkorlikda ish olib boradilar, naqqoshlar chizgan naqsh andozasi asosida gul o'yadilar.


Toshtaroshlik tosh yo'nish, silliqlash, badiiy shakl berish bilan shug'ullanuvchi kasb, soha oti. O'rta Osiyo me'morchiligida yog'och, ganch bilan birga toshdan ham foydalanilgan. Toshtaroshlik – tosh o'ymakorligi san'ati O'rta Osiyoda, ayniqsa, O'zbekiston territoriyasida qadimdan rivojlangan. Ayritom, Fyoztepa, Qoratepa va boshqa joylardagi xarobalar binolarni bezashda, haykallar ishlashda (I-III asrlar) toshdan foydalanilganligini tasdiqlaydi. Toshtaroo'lik O'rta Osiyoda, ayniqsa, XV asrlarda rivoj topdi va takomillashdi. Binolarning poydevori, ustunlari toshdan yasaldi. Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Ahmad Yassaviy maqbarasi kabi me'moriy yodgorliklar marmar va boshqa toshlar bilan bezatilgan.

Koshinpazlik koshin pishirish bilan shug'ullanuvchi soha, kasb oti. Koshin chinniga o'xshash yaltiroq, rang berib pishirilgan naqshli sopol plitka. O'rta Osiyo tarixiy yodgorliklarida (Shohizinda, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Xudoyorxon saroyi va b.) koshin ishlatilishi tarixidan ma'lum bo'ladiki, sopolga sir berish, koshin pishirish XIV asrlarda ixtiro qilindi. 1920-yillarda samarqandlik va

---

<sup>1</sup> ЎЗСЭ. 4-том. 269-270- бетлар.

toshkentlik mohir kulollar Umar jo'raqulov, Muhiddin Rahimov va boshqalar koshinpazlikni qayta tiklashga kirishdilar. O'tmishdagi koshin namunalariga ancha yaqin sirli plitkalar ishlana boshlandi. Undan arxitektura yodgorliklari restavratsiyalarida va boshqqa monumental qurilmalarda foydalanilmoqda.<sup>1</sup>



### 2.3. Me'morchilik terminlarining leksik- semantik guruhlar

Me'morchilik san'ati terminlari o'zbek tili leksik sistemasida maxsus qatlamni tashkil qiladi. Bu qatlam o'z ichida semantik jihatdan umumiy va xususiy belgilariga ko'ra bir necha leksik-semantik guruhlariga bo'linadi. Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan har qanday kasb o'tmishda ham, hozirda ham o'z terminlarini yaratadi. Umumiste'moldagi xohlagan so'z kasb-kor, soha doirasida maxsus ma'noga ega bo'lishi, termin ma'nosini anglatishi mumkin. Chunonchi, ship, devor, oshxona umumiste'moldagi oddiy so'z, ammo me'morlar, quruvchilar nutqida termindir.<sup>2</sup>

Me'morlik san'ati bilan aloqador bo'lgan ganchkorlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, koshinpazlik kabi amaliy san'at tarmovlari terminlarini quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratish mumkin:

<sup>1</sup> Турсунова Т. Ўша асар. 84-бет

<sup>2</sup> Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. М.: Просвещение, 1979. С.264.

1. Soha-kasb ma'nolarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
2. Kasb egalari ma'nosi, shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
3. Me'morlik san'ati – arxitektura ilmiga xos ma'no ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
4. Me'moriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
5. Loyihachilik terminmalari leksik-semantik guruhi.
6. Murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhi.
7. Tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovcha terminlar leksik-semantik guruhi.
8. O'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlarga oid terminlar
9. Me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlar
10. Bino qismlari va ularning va ularning turlarini ifodalovchi
11. Me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahmulot nomlarini ifodalovchi
12. Xom ashyo nomlarini ifodalovchi terminlar
13. Me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari terminlari
14. Mehnat jarayoni ma'nosini ifodalovchi terminlar
15. O'yish usullari va pardoiz turlarini ifodalovchi
16. Naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlar
17. Naqsh turlarini ifodalovchi terminlar
18. Me'morlik inshootlarini bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlar
19. Rang va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar
20. Naqqoshlik o'ymakorlik usulida ishlab qiqariladigan predmetlar va ularning qismlarini bildiruvchi terminlar.

**Soha-kasb ma'nolarini ifodalovchi terminlar lesik-semantik guruhiga** me'morlik san'ati bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari va kasb-kor tarmoqlariga oid terminlar kiradi. Chunki loyiha chizishdan boshlab, qurish, bezash ishlari me'morlik san'atining tarkibiy qismlaridir. Masalan, *imoratsozlik, uysozlik, duradgorlik, binokorlik, sirkorlik, naqqoshlik, toshtaroshlik-sangtaroshlik, o'ymakorlik, oynazand o'ymakorlik, koshinkorlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, marmar o'ymamkorligi, bo'yoqchilik, suvoqchilik, ta'mirchilik, restavratsiya, chizmakashlik, loyihachilik, mayolika, moziika, lepka.*

*Maloyika* (ital.) sirli koshinlardan naqsh ishlash san'ati. Maxsus formalarda pishirilgan rangli, gulli koshin; yirik inshootlar devorlariga mayolika usulida naqsh-tasvirlar ishlanadi. *Mozaika* (ital.) rang-barang shisha, tosh, yog'och, faner va boshqa buyum qiyqindilarini bir-biriga yopishtirish usuli bilan naqsh-tasvir, rasm ishlash kasbi. *Lepka* (rus.) turli tasvir shakllarni yuzaga (devor yuzasi) yopishtirish usuli bilan naqsh detallarini yaratish san'ati.

**Kasb egalari ma'nosi, shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi terminlar leksik-semantik guruhiga** kiruvchi terminlarni kasb egalari o'rtasidagi ayrim urf-odatlar, sotsial munosabatlarga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) *arxitektor, restavrator, banno, me'mor, muhandis, tarroh, panjaraboz, binokor, ganchkor, sirkor, koshinkor, o'ymakor, koshitarosh, sangtarosh, lepszchik, loyihachi, muqarnaschi, sayqalchi, ta'mirchi, shlifovkachi, chizmach, loyihalovchi, o'ymakor naqqosh, tiklovchi rassom, ta'mirchi usta, g'isht teruvchi, arrakash* va b.; b) kasb egalarining o'zaro rasmiy munosabati, ish boshqarishi, darajasiga ko'ra berilgan nomlarni ifodalovchi terminlar: *ustoz, ustazoda, naqqoshzoda, shogird, g'olib, oqsaqol, pudratchi, usta, oqsaqol, master, ustaboshi, korgar, bosh me'mor, najjorboshi* kabi.

Cho'bkor (f-toj.) – sinchli imoratlar ustasi, quruvchi me'mor ma'nosini bildiradi. Cho'bkor termini me'morlik leksikasida umumlashgan xarakterdagi ma'no bildiruvchi termin. Buning sababi cho'bkorlik o'z ichida duradgorlik, durezgilik, najjorlik ishlarini birlashtiradigan maxsus termin.

Duradgor (f-toj.) – yog’och ishlari mutaxassisi, ammo duruzgar (f-toj.) oddiy yog’och ishlari ustasigina bo’lmay, o’ymakor eshiklar, tobadon, panjaralar yasovchi usta hisoblanadi.

Najjor (a.) – yog’och ishlari bilan shug’ullanuvchi usta. Bu termin tojik tillaridagi duradgor, rus tilidagi plotnik, stolyar ma’nosini beradi. O’zbek tilida najjor terminsi tojik tilidan o’zlashgan duradgorning sinonimi, ammo najjor hozirgi o’zbek tilida passiv iste’moldagi eskirgan so’zdir.

Yana bir qanchasi najjoru naqqosh,

Bo’lolmas hech kim o’z davrida tengdosh.

(Habibiy)

**Me’morlik san’ati – arxitektura ilmiga xos ma’no ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi** me’morlik, naqqoshlik, o’ymakorlik kabi san’at sohalari bilan aloqador qonuniyatlar, qurish, ta’mirlash, naqsh yaratish usullariga oid terminlar kiradi: *arxitektura ansabli, assimetriya, gotika uslubi, gabarit, garmoniya, gumbaz-ravoqli konstruksiya, dekoratsiya, deformatsiya, yog’och strukturasi, ichki interer, kontrast uslub, kompozitsiya, kompanovka, kolorit, kontur, kompleks, konservatsiya, maket, mutanosiblik, mayda struktura, bichim, namoyon proportsiyasi, ornament kompozitsiyasi, plastik echim, rang garmoniyasi, stilizatsiya, simmetriya, soya, rapport, taqsim, hajmli arxitektura detali, murakkab hajmli detal* va b.

**Me’moriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi** yirik inshootlar, ijtimoiy binolar, ayniqsa, milliy-madaniy traditsiyalar, diniy urf-odatlar bilan bog’liq me’moriy qurilmalarda turli bezak detallardan foydalaniladi. Bunday bezak detallaor shaklan binoning tarkibiy qismi kabi ko’rinadi va amaliy funktsiyalardan tashqari, ko’proq estetik talab, go’zallik uchun xizmat qiladi. Masalan, *abak, arkada, aroqi, bag’al, guldasta, gumbaz, davra qavasa, davra ravoq, karniz, kolonna, ko’zagi, kapitел (bosha), ravoqli kosacha, kosamon, pilamon, kitoba, minora, muqarnas, qubbali fonus, timpan, ravoq, peshtoq, toq, hovzak* va b.

**Loyihachilik bilan aloqador terminlar leksik-semantik guruhiga** me'moriy inshootlar, me'moriy bezak detallar, murakkab naqsh sistemalari, ta'mirlash ishlari bilan aloqador loyihalar yaratishga oid terminlar kiradi. Misollar: *ornament chizmasi, naqsh loyihasi, namoyon o'lchami, kapitel chizmasi, chizma, gumbaz chizmasi, geometrik chiziq, gul eskizi, bichim chizmasi, o'q chizig'i, eskiz, egri sirt, chiziqsiz sirt, tarh, loyiha, radius chizig'i, proekt, plan, perimetr, paralleloped, musavvada, millimetrovka, mashtab katagi, kontur chiziq, konoid, ichki yoy chiziq, yordamchi chiziq, yoy radiusi, yoy kesishmasi* va b.

Murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi. Murakkab naqsh sistemalari asosida murakkab hajmli naqsh detallari hosil qilinadi. Murakkab hajmli naqsh detallariga ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi usulida ishlanadigan muqarnas, iroqi, sharafta tipidagi me'moriy bezak detallar kiradi. Muqarnas (a.)- minoraning tepa qismi, ustun boshasi (kapitel), xona shifti, hovzak, karniz va mehrobiy tokchalarga ishlanadigan murakkab naqsh sistemasi. Muqarnas qator bo'ylab geometrik formada terib chiqiladigan ravoqli kosachalardan shakllanadi. "Kocha"larning ma'lum tartibda terilishi yoki o'yilishi asosida g'orlarda yoki tom bo'g'otlarida osilib turadigan sumalak (rus. stalaktit) ko'rinishlariga o'xshash murakkab hajmli arxitektura bezak detali hosil bo'ladi. muqarnasning ikki turi mavjud: muqarnas tipi, iroqi tipi. Muqarnas tipida murakkab naqshli ravoqli kosachalarga o'xshash qismlari aloqida detallardan terib chiqiladi. Iroqi tipida naqshning ravoqli kosachaga o'xshash detali tekis ganch yuzaning o'zida o'yib hosil qilinadi. Muqarnas naqsh sistemasi bir necha usul bilan hosil qilinadi: taxta muqarnas, quyma muqarnas (qolipli ganch muqarnas), o'ymakor ganch muqarnas, koshinkoriy muqarnas kabi.

Sharafa (a) – ganchkorlikda, asosan to'g'ri yuzada qo'llanadigan, shift bilan devorni bir-biridan belbog' shaklida ajratib turadigan murakkab naqsh sistemasi. Sharafa ham muqarnasga o'xshab geometrik shaklda qator bo'ylab bir-birining ustiga terib chiqiladigane detallardan shakllanadi. Sharafa xonalarning naqsh

kompozitsiyasini ajratish, bo'rttirish, muqarnas esa gumbaz ichida, xona shiftlarida, qandil atroflarida ishlanib, markazni bo'rttirish uchun xizmat qiladi.

**Tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Naqqoshlik, ganchkorlik usulida ishlanadigan naqsh elementlarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan ko'rinish, manzara tugallangan kompozitsiya sanaladi. Tugal kompozitsiya sanaladigan naqsh "namoyon" nomlanadi. Namoyon (f-toj.) nusxalari uchun turunj, guldondagi gul, medalxon, madohil kabi naqshlar asos bo'ladi. naqqoshlik, ganchkorlik usulida ishlanadigan tugallangan naqsh kompozitsiyalari (namoyonlar) xona devorlari va shiplarga ishlanadi.

Namoyonning quyidagi turlari mavjud: *naqshi namoyon, o'ymakor namoyon, mehrobi namoyon, chorsi namoyon, seraftor shabaki namoyon, majnuntol panno, majnuntol paxta gulli palak* ("Navoiy" teatri sirtqi zali devorlariga Usta Toshpo'lat Arslonqulov tomonidan ishlangan toshkent palagi nusxali namoyon), *turunj namoyon* va b.

**O'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlar.** Qadimgi me'morlik yodgorliklarida turli yozuvli naqshlar ishlangan. Yozuvli naqshlar arab yozuvi bilan o'ymakor ustunlar, eshiklar, yog'och taxtalarga yozilgan. Bunday yozuvli naqshlar g'isht terish usuli bilan ham ishlangan. Misollar: *sexat* (f.-toj-a), *kitoba* (a) – naqqoshlik usuli bilan devor yuqorisiga ishlangan naqsh; *xatti nasxiy* (f-toj.) – XVI asr Xiva obidalarida o'ymakor ustunlarga bitilgan naqsh; *xatti ko'fiy* (f-toj.) – o'ymakor ustun naqshi; *kalima* – arab yozuvida bitilgan naqsh turi; *xatti suls* (f-toj-a) – kesma koshin bilan terib yozilgan naqsh.

**Me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Me'morlik inshootlari turli davrlar mahsuli sifatida qadimiylilik va zamonaviylilik xususiyatiga ega. Qadimiylilik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar: *arka, ayvon, avanzal, aylanma zina, daxma, dalon, koshona, ko'shk, madrasa, sardoba, tim, xonaqoh, shohnishin, shahriston, chortoq, qal'a, kox, saroy, shiypon, peshtoqli darvoza, davra ko'shk, qafasa, fonus*

kabi. Zamonaviy xususiyatga ega bo'lgan terminlar: *kottedj, pavilon, balkon, veranda, vestibuly, mehmonxona, kontrfors, kalorifer* kabi.

**Bino qismlari va ularning turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Bino qismlarining ham o'ziga xos nomlari mavjud: *boza, bozu, bel, balka, dila, o'rta dila, deraza qanoti, izora, taxmon, tokcha, panel, poydevor, qalam, fundament, xari, piramon, pillapoya, peshtaxta, maurolat, ustun, chorcho'p, bag'dodi, nishon, xotamkoriy eshik, Huvaydo bog'dodiy, hovuzakli ship, qo'shsinch, xarsangtosh poydevor, ravoqli eshik, osma shift, naqshin eshik, mehrobi tokcha, lampa shift, koshinkoriy izora* va b.

**Me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahsulot nomlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Me'morchilikda quyidagi yarim tayyor mahsulot nomlari mavjud: *asal, muloyim, ganchtaxta, ganchplita, ganchxok, ganchin taxtacha, xobonda ganch, xovonda xok ganch(qorishma), qir qorishmasi, ohak qorishmasi, gipsli qorishma, tsementli qorishma, haftjo'sh, kapganch, ganch qormasi, alebastr qorishmasi, tezganch, gulganch* va b.

**Xom ashyo terminlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Bu guruhga me'morlik, ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan xom ashyo mahsulot nomlari kiradi: *akvarel, alebaster, alif, albumin, beis, belila, Bf, bo'r, ganch, gilmoya, gilvata, granit, garafit, grunt, guash, elim, yog'och, zarhal, kafel, koshin, lux, malaxit, marmar, lok, moy bo'yoq (emal), morilka (tezob), ohor, parchin, PVA, pigment, plita, sadaf, taxta, terrakota, toshoyna, to'zg'oq faner, jaydari g'isht, kvadrat g'isht, musulmon g'isht, rus g'ishti, sirkor sopol, qizil kesak, o'rik elimi* kabi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari: *arg'uvon buk, gujum, eman (dub), yong'oq, jo'ka, klyon, ko'k terak., oq terak, mirza terak, sada g'ayrag'och, tilog'och, chinor, o'rik, qayrag'och* va b.

**Me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari nomlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Bu guruh, avvalo, ikki guruhga bo'linadi: a) elektr asboblari; b) qo'l asboblari. Elektr asboblari: *avtoshpunt, avtoranda,*

*kraskaterka (bo'yoq tayyorlash mashinasi), motopilka, reysmus, parmalash stanogi, frezer stanogi, tokarlik stanogi, tebranma elak, elektr arra, elektr parma. Qo'l asboblari: arra, andava, belcha, bolg'acha, verstak (dastgoh) burg'i, andaza, ahta, gazcho'p, gurzi, go'niya, dasmol, dasarra, iskana, iskanja, kajava, minkor, mo'yqalam, tig', trafaret, shovun, chekich, chizg'ich, gul randa, gul qalam, gurzi qalam, dudama qalam, zamin iskana qalam, pilta qalam, siyoh qalam va b.*

**Mehnat jarayonini ma'nosini ifodalovchi atamlarning leksik-semantik guruhi.** Ishlab chiqarish jarayonini ifodalovchi terminlar guruhiga naqqoshlik, ganchkorlik, toshtaroshlik, yog'och o'ymakorligi sohalariga oid mehnat jarayoni bilan aloqador bo'lgan terminlar kiradi: *ganchlash, alebastrlash, zarhallash, tarash, targ'illash, ta'mirlash, tezganch berish, chekichlash, koshin qoplash, tarh chizish, tosh kesish, ship ochish, muqarnas o'yish, eskiz chizish, hal berish* kabi.

**O'yish usullari va pardoiz turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** O'ymakorlik – ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi naqsh solishning o'ziga xos uslublari bor. O'yish usullariga qarab pardoiz usullari kelib chiqadi. Masalan, *bo'rtma, bag'dodiy o'yma, oynavand zaminli o'yma, uch qirrali o'yma, yassi bo'rtmali o'yma, qirma, pargori, uchburchak kesim, ko'ndalang kesim, zaminsiz chizma, ko'p planli bo'rtma uslubi, zaminkor pardoiz, yoyma pardoiz, zaminsiz lo'la pardoiz, choka pardoiz, pax pardoiz, tabaqa pardoiz, yoyma pardoiz, chizma pardoiz* va b.

**Naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** O'ymakor, naqqosh ustalar naqsh ishlashdan avval naqsh tushiriladigan yuzani (yog'och, ganch, devor, taxta) naqsh berishga moslaydilar, mavjud yuzani mo'ljallab ish ko'radilar. SHunga ko'ra yuzalar quyidagicha nomlanadi: *zamin, katta zamin, kichik zamin, oyna zamin, tekis zamin, tekis sath, fon, chakich zamin, faktura, ko'p planli bshrta yuza* va b.

**Naqsh turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.** Amaliy san'at turlarida, jumladan me'morlikda, asosan ikki xil naqsh sistemmasi

mavjud. Shu ikkala naqsh guruhning qo'shilishidan uchinchi xil aralash sistema kelib chiqqan:

1. Girih naqsh sistemasi
2. Islimi naqsh sistemasi
3. Aralash yoki murakkab naqsh turi.

*Girih* (a. girih-chigal tugun) takrorlanuvchi rapport – taksimlar asosida geometrik figuralardan shakllanuvchi handasiy naqsh. Girih naqshi geometrik doira o'qi tevaragida bir xilda takrorlanuvchi geometrik figuralardan hosil bo'ladi. Me'mor-naqqoshlar girih tuzishda pargor va chizg'ichdan foydalanadi. Girih naqshi asosida ma'lum qonuniyat yotadi. SHuning uchun ham geometrik naqsh – girih teng bo'laklarga qoldiqsiz bo'linishi mumkin. O'zbekiston arxitektura yodgorliklarida saqlanib qolgan girih namunalari bu naqsh sistemasining tarixi uzoqligini ko'rsatadi.<sup>1</sup>

*Islimi* (a) – o'simliksimon (nabotiy) naqsh. Amaliy san'at turlarida keng qo'llanadigan asosiy naqsh gruppalaridan biri. *Ismili naqshi tanob, band, kurtak* kabi o'simlik naqsh elementlarining o'zaro birlashib ketishidan hosil bo'lgan. Islimi naqshi uzluksiz davom etadigan to'liqlik chiziq shaklini eslatadi. Toshkentlik yog'och o'ymakori Ortiq Fayzullaev islimi naqshini "o'suvchi naqsh" deb nomlaydi.<sup>2</sup> Chunki bu naqsh turi daraxt ildizidan tanasi, shoxi, novdasi, bargi, guli o'sib chiqqani kabi bir nuqtadan boshlanib, pechaksimon o'ralib-o'ralib davom etib ketaveradi.

Girih, islimi va ularning aralashishidan hosil bo'lgan naqsh turlariga misollar: *to'g'ri chiziqli girih, aralash chiziqli girih, shash girih, pardori girih, belboh girih, qirrali yulduz, gulli bodom, guli burchi, guli islimi mug'cha, islimi arus, islimi bodomcha, islimi bargak, qo'shtanob islimi, guli girih* va b.

**Me'morchilik inshootlari bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlarning leksik-semantik guruhi.**

<sup>1</sup> Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана.-Т.:ГИХЛ, 1961, 183-бет.

<sup>2</sup> Турсунова Т. Ўша асар. 94-бет

Me'morlik inshootlarini bezashta, ayniqsa, zamonaviy arxitekturada naqqoshlik, o'ymakorlik, koshinkorlikdan tashqari turli usullardan foydalanadi. Jumladan: a) bezash usuli: *amper* (fr-rus), *alfrey* (ital-rus), *freska* (atal-rus) qo'l suvoq ustidan naqsh berish, *applikatsiya* (lat-rus), *bo'rtma naqsh*, *qoplama pardoz*, *sirkor parchin qoplama*, *koshinkor qoplama*, *mozaik preska* (ital-rus), *kundal*, *qolipaki usul* va boshqalar; b) turli usullar bilan berilgan bezak turlarini nomlovchi terminlar: *ganchin bezak*, *ganchkoriy bezak*, *bo'rtma hoshiya*, *o'yma gul*, *pargori naqsh*, *o'yma pargori*, *quyma naqsh*, *sirkoriy bezak*, *xotamkoriy*, *naqshin gul*, *naqshin bezak*, *koshin bezak*, *koshin gul*, *koshinkoriy bezak* va b.

**Rangli va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar.** Ganchkorlik, ayniqsa, naqqoshlik – sirkorlik bezaklarida turli ranglar va bo'yoqlardan foydalaniladi. Masalan, *sovuq ranglar*, *issiq ranglar*, *iliq ranglar*, *axromatik ranglar*, *xromatik ranglar*, *moviy rang*, *lojuvard* (fors. *to'q ko'k tusli mineral*), *tillarang*, *targ'il*, *zangori*, *shingarf*, *kumush kukunli bo'yoq*, *qo'rg'oshin bo'yoq*, *emal*, *emulsiya* va b.

**Naqqoshlik va o'ymakorlik usulida ishlab chiqariladigan predmetlar va ularning qismlarini bildiradigan terminlar.** O'ymakorlik, naqqoshlik kabi amaliy san'at turlarida me'moriy inshootlarni bezashdan tashqari, turli tipdagi naqshli buyumlar ham ishlab chiqariladi. Masalan, *guldona*, *ignadon*, *quticha*, *kursi*, *lahv*, *lagan*, *olti qirrali stol*, *olti qirrali stul*, *xontaxta*, *panjara*, *panjarali shirma*, *o'ymakor ko'zgu*, *o'ymakor* va b.

Ma'lum bo'ldiki, me'morlik va u bilan aloqador bo'lgan amaliy san'at turlariga oid terminlar umumiy va xususiy belgilariga ko'ra yigirmadan ortiq leksik-semantik guruhga bo'linadi. Bu holat mavzu ob'ektining kengligi bilan izohlanadi.

## **II bob yuzasidan xulosalar.**

1.Me'moriy inshootlarning nomlari va nomlanish tarixi inshootlarning maydonga kelish tarixi bilan, uning ijodkori bo'lgan xalq tarixi bilan uzviy bog'liq.

2. Me'moriy inshootlarning nomlari quyidagi Me'moriy qurilmalarning tashqi ko'rinishi va belgi-xususiyatiga ko'ra (*Minorai kalon, Katta minor*); ishlanish xususiyati, ish uslubi va materialiga ko'ra (*Tillakori madrasa, Tosh hovli*); diniy aqidalarga ko'ra (*Mo'yi muborak, Shohizinda*); inshoot qurilgan joyning xususiyatiga ko'ra ( *Registon* (reg – qum, iston – joy ma'nosidagi affiks); me'moriy qurilmaning vazifasi yoki unda bajariladigan kasb turiga ko'ra (*Toqi zargaron* – zargarlar gumbazi, ya'ni zargarlik rastasi, zargarlar do'koni joylashgan gumbaz); me'moriy inshoot shu qurilma bilan aloqador shaxsning laqabi, kasbiga ko'ra (Mir Arab – yamanlik Shayx Abdulloning laqabi ); inshoot unda istiqomat qiluvchilarga ko'ra (*Sitorai mohi xossa*. Terminning ma'nosi “Yulduz va oylarga xos joy ki ichkarining(haramning) bir kishiga xos oy va yulduzlari” demakdir); inshoot uning qurilishi bilan yoki bu darajada aloqador bo'lgan oliy martabali yoki badavlat shaxslar nomiga ko'ra (*Shayx Xovondi Tahir* (Shayx Xovondi Tahir-Shayxantahir).

3. Me'morlik terminlarini quyidagi tematik guruhlariga bo'lish mumkin: naqqoshlik terminlari, o'ymakorlik atakmalari, ganchkorlik terminlari, yog'och o'ymakorligi terminlari, tosh-taroshlik terminlari, koshinpazlik terminlari.

4. Me'morchilik terminlarining leksik-semantik guruhlarini soha-kasb ma'nolarini ifodalovchi terminlar, kasb egalari ma'nosi, shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi terminlar, me'morlik san'ati – arxitektura ilmiga xos ma'no ifodalovchi terminlar, me'moriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar, loyihachilik terminmalari, murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi terminlar, tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovcha terminlar, o'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlarga oid terminlar, me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlar, bino qismlari va ularning va ularning turlarini ifodalovchi terminlar, me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahmulot nomlarini ifodalovchi terminlar, xom ashyo nomlarini ifodalovchi terminlar, me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari terminlari, mehnat jarayoni ma'nosini ifodalovchi terminlar, o'yish usullari va

pardoz turlarini ifodalovchi terminlar, naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlar, naqsh turlarini ifodalovchi terminlar, me'morlik inshootlarini bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlar, rang va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar, naqqoshlik o'ymakorlik usulida ishlab chiqariladigan predmetlar va ularning qismlarini bildiruvchi terminlarkabi turlarga ajratish mumkin.

## UMUMIY XULOSALAR

Terminlarni mantiqiy jihatdan ta'riflash mumkinligi esa ularni boshqa so'zlardan ajratish imkoniyatini beradi. Mantiqiy - ta'riflash termin sifatida olingan so'zdan anglashiladigan tushunchaning bir necha muhim belgisini ifodalash demakdir. Termin hamma vaqt — gapda ham, gapdan tashqarida ham bir ma'noli bo'ladi. Uning bir ma'noli bo'lishi ma'lum fan yoki ma'lum sohadagina qo'llanish xususiyati orqali yuzaga keladi.

Termin so'zning ko'pincha qo'llaniladigan asosiy (bosh) ma'nosigagina tayanmaydi, balki ko'chma (yoki yasama) ma'nolariga ham asoslanadi. Odatdagi so'zlar tuzilish jihatidan sodda yoki qo'shma bo'ladi. Terminlar esa sodda va qo'shmalikdan tashqari, murakkab (ya'ni birdan ortiq so'zlarning grammatik tobelik munosabatiga kirishiga asoslangan turg'un birikma holatida) *ham* bo'ladi.

Lug'at sostavining alohida bir guruhi sifatida ajratiladigan terminologiya, aslida aniq bir chegaraga ega bo'lgan ilmiy (falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy) xarakterdagi so'zlar sistemasidir. Terminlar fan va texnikaning umumjahon miqyosida rivojlanishiga bog'liq holda umumjahon mazmuniga ega bo'lsa, kasb-hunar sohasida qo'llanadigan so'zlar, bir tomondan, ma'lum mahalliy chegaraga, ikkinchi tomondan, kichik bir kasb-hunargagina mansub bo'lganidan, juda tor ma'no munosabatiga egadir.

Ona tilida mavjud bo'lgan so'z va morfemalardan termin yasashda ikki yul borligi ma'lum: 1. Odatdagi so'zlarni termin sifatida qo'llash yo'li bilan termin yaratish. 2.

Ona tilidagi soʻz va morfemalar yordamida termin yasash.

Terminologiyani yaratishdagi ikkinchi manba boshqa tillardagi, xususan, bevosita tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlgan xalqlarning tillaridagi soʻz va terminlardir.

Meʼmoriy inshootlarning nomlari va nomlanish tarixi inshootlarning maydonga kelish tarixi bilan, uning ijodkori boʻlgan xalq tarixi bilan uzviy bogʻliqdir.

Meʼmoriy inshootlarning nomlari quyidagi Meʼmoriy qurilmalarning tashqi koʻrinishi va belgi-xususiyatiga koʻra (*Minorai kalon, Katta minor*); ishlanish xususiyati, ish uslubi va materialiga koʻra (*Tillakori madrasa, Tosh hovli*); diniy aqidalarga koʻra (*Moʻyi muborak, Shohizinda*); inshoot qurilgan joyning xususiyatiga koʻra ( *Registon* (reg – qum, iston – joy maʼnosidagi affiks); meʼmoriy qurilmaning vazifasi yoki unda bajariladigan kasb turiga koʻra (*Toqi zargaron* – zargarlar gumbazi, yaʼni zargarlik rastasi, zargarlar doʻkoni joylashgan gumbaz); meʼmoriy inshoot shu qurilma bilan aloqador shaxsning laqabi, kasbiga koʻra (Mir Arab – yamanlik Shayx Abdulloning laqabi ); inshoot unda istiqomat qiluvchilarga koʻra (*Sitorai mohi xossa*. Terminning maʼnosi “Yulduz va oylarga xos joy ki ichkarining(haramning) bir kishiga xos oy va yulduzlari” demakdir); inshoot uning qurilishi bilan yoki bu darajada aloqador boʻlgan oliy martabali yoki badavlat shaxslar nomiga koʻra (*Shayx Xovondi Tahur* (Shayx Xovondi Tahur-Shayxantahur).

Meʼmorlik terminlarini quyidagi tematik guruhlariga boʻlish mumkin: naqqoshlik terminlari, oʻymakorlik atakmalari, ganchkorlik terminlari, yogʻoch oʻymakorligi terminlari, toshtaroshlik terminlari, koshinpazlik terminlari.

Meʼmorchilik terminlarining leksik-semantik guruhlarini soha-kasb maʼnolarini ifodalovchi terminlar, kasb egalari maʼnosi, shugʻullanuvchi shaxs maʼnosini ifodalovchi terminlar, meʼmorlik sanʼati – arxitektura ilmiga xos maʼno ifodalovchi terminlar, meʼmoriy bezak detallar va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar, loyihachilik terminmalari, murakkab naqsh sistemasini ifodalovchi

terminlar, tugallangan naqsh kompozitsiyasi ma'nosini ifodalovcha terminlar, o'ymakorlik, naqqoshlik usulida ishlangan yozuvli naqshlarga oid terminlar, me'moriy qurilmalar va ularning tarkibiy qismlarini ifodlovchi terminlar, bino qismlari va ularning va ularning turlarini ifodalovchi terminlar, me'morchilikda ishlatiladigan yarim tayyor mahmulot nomlarini ifodalovchi terminlar, xom ashyo nomlarini ifodalovchi terminlar, me'morchilikda ishlatiladigan ish qurollari terminlari, mehnat jarayoni ma'nosini ifodalovchi terminlar, o'yish usullari va pardoz turlarini ifodalovchi terminlar, naqsh ishlanadigan yuza – sath ma'nolarini ifodalovchi terminlar, naqsh turlarini ifodalovchi terminlar, me'morlik inshootlarini bezash usullari va turli usul bilan hosil qilingan bezak turlarini ifodalovchi terminlar, rang va bo'yoq turlarini ifodalovchi terminlar, naqqoshlik o'ymakorlik usulida ishlab chiqariladigan predmetlar va ularning qismlarini bildiruvchi terminlarkabi turlarga ajratish mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Асамутдинова М. Название одежды и ее частей в узбекском языке. Автореферат канд. дисс... Т., 1969.
2. Бобирнома. Т.:1960.
3. Дадахонов Д. Чеварчилик лексикасига оид баъзи бир сўз-терминлар ҳақида.// ЎТА №1,1963.
4. Муродов Н.М. Вопросы терминологии в узбекском языке. Объединенная сессия , тезиси докладов. –Т.:1964.
5. Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили лексикаси баъзи масалари. Т.: Фан,1982.
6. Навоий асарлари луғати.Т.:1972.
7. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши.Т., Шарқ, 2005
8. Негматов Ҳ.,Расулов Р.Ўзбек тили лексикологияси асослари. 1995.
9. Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. –ЎТА. №1, 1983.
- 10.Нурмонов А.,Маҳмудов Н.,Аҳмедов А.,Солихўжаева С.Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.Тошкент,Фан,1992.
- 11.Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология.Тошкент: Янги асар авлоди, 2001.
- 12.Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. –Т.: Маънавият, 2004
13. Расулов И. Ўзбек илмий-техник терминологияси тараққиётининг баъзи масалалари. Т.,1952.
14. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана.-Т.;ГИХЛ, 1961,
15. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. Сб..”Вопросы терминологии».М.,1961.

16. Турсунова М. Меъморчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Т.: Fan, 1987.
17. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. Т.: Ўзб.ССР ФА, 1959
18. Икромов Н. Таом номларини ифодаловчи сўз-терминлар ҳақида.// ЎТА, №4, 1964
19. Зоҳидова П.Ш. Меъмор санъати. Т., 1978.
20. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. Т.: Ўқитувчи, 1968.
21. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. Т.: Фан, 1962.
22. Гуломов А. Ўзбек тилида сўз ясашиш йўллари. -Т., 1949.
23. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг тузилиши. Истиқлол ва она тили қурилиши талқини ҳамда таълими. Бухоро, 1998.
23. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-том, 1966.